

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

**O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI TIBBIY
MUASSASALAR RAXBARLARI MAJBURIYATLARINING UMUMIY
TAVSIFI**

TOSHKENT – 2011

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN» O'zb. Res. Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasining ilmiy bo'limi va o'quv boshlig'i, prof. Sh.E.Ataxanov _____ «_____»_____ 2011 y. bayonnoma№_____	«KELISHILGAN» O'zb Res. Sog'liqni Saqlash Vazirligi tibbiy ta'limni rivojlantirish Markazi Direktori VVB X.A.Abdullaeva _____ «_____»_____ 2011 y. bayonnoma№_____
--	---

**O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI TIBBIY
MUASSASALAR RAXBARLARI MAJBURIYATLARINING UMUMIY
TAVSIFI**

**VII kurs pediatriya, tibbiy pedagogika fakulteti talabalari, rezidentlar uchun
o'quv-uslubiy qo'llanma**

TOSHKENT – 2011

Tuzuvchilar: Sh.T. Iskandarova ToshPMI Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish kafedrasini mudiri t.f.d., professor
N.M.Maxmudova Tosh PMI Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish kafedrasini professori t.f.d..
ToshPMI Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlash tizimini tashkillashtirish va boshqarish kafedrasining dotsentlari t.f.n.
N.F.Rasulova , t.f.n. N.S.Muxamedova

Restenzyentlar: P.R. Menlikulov - Toshkent Vrachlar Malakasini Oshirish Instituti sog'liqni saqlashni tashkil qilish va moliyalashtirish kafedrasini professori, t.f.d.
V.T.Samadova - ToshPMI Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish kafedrasining dotsenti t.f.n.
A.R.Egamberdiyev Tosh PMI O'zbek va lotin tillar kafedrasini katta o'qituvchisi

Qo'llanma ToshPTI ning MUK da muxokama qilingan, bayonnoma № ____ 2011y.

Qo'llanma ToshPTi ning Ilmiy Kengashida tasdiqlangan, bayonnoma № ____ 2011 y

ToshPTI Ilmiy Kengashi Ilmiy kotibi E.A.Shomansurova _____

MUNDARIJA

Kirish	7
1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi.	
1.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining tuzilish.....	10
1.2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligiga karashli tibbiy muassasalar	11
2. Sog'liqni saqlash tizimining viloyat boshqarmalari	
2.1. Sog'liqni saqlash tizimining viloyat boshqarmalari ish faoliyati xaqqidagi umumiy ma'lumotlar.....	12
2.2.Sog'liqni saqlash tizimining viloyat boshqarmalari boshlig'ining vazifalari	17
2.3. Sog'liqni saqlash tizimining viloyat boshqarmalari boshlig'i profilaktika va davolash ishi bo'yicha o'rinbosarining vazifalari	18
2.4.Viloyat bosh pediatri vazifalari.....	20
4. Ko'p tarmoqli tibbiy markaz xamda bolalar kup tarmokli markazlari.	
3.1. Ko'p tarmoqli tibbiy markaz xamda bolalar kup tarmokli markazlari ish faoliyati xaqida umumiy ma'lumotlar.....	21
3.2. Viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazi bosh shifokorining vazifalari	27
3.3.Viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazi bosh shifokorining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarining vazifalari	33
3.4.Viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazi statsionar mudirining vazifalari.....	37
3.5. Viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazi ordinator-pediatrlarning vazifalari.....	40
5. Shaxar tibbiy birlashmaning yoki oilaviy poliklinikaning bolalar bo'limi	
4.1. Shaxar tibbiy birlashmaning (bolalar poliklinik bo'limi) ish faoliyati xaqidagi umumiy xolatlar.	43
4.2.Shaxar poliklinikasining bolalar bulimi mudirining (markaz yoki oilaviy poliklinika)	48
4.3. Poliklinikaning pediatriya bo'limi mudirining vazifalari	49
4.4. Maxalliy pediatr, vrach pediatr (UASh, pediatriya bulinmasi bo'yicha) vazifalari.....	50
4.5. Maktabgacha muassasalar va maktab vrach pediatrlarining vazifalari	52
4.6. Oilaviy poliklinikaning ish faoliyati tug'risida.	55
6. Shaxar bolalar kasalxonasi.	
5.1. Shahar bolalar kasalxonasi haqida umumiy ma'lumotlar.	83
5.2.Shahar bolalar kasalxonasi bosh shifokorining vazifalari	85
5.3.Shahar bolalar kasalxonasi bosh shifokorining tibbiy bo'lim bo'yicha o'rinbosarining vazifalari	90
5.4. Shahar bolalar kasalxonasi bosh shifokorining metodik ishlarni tashkillashtirish bo'yicha o'rinbosarining vazifalari	92

5.5. Shahar bolalar kasalxonasi bulimi mudirlarining vazifalari	92
5.6. Vrach ordinator- pediater vazifalari	97
7. Akusher-ginekologik kompleks.	
6.1. Akusher-ginekologik kompleks ish faoliyati tugrisidagi umumiy ma'lumotlar	101
6.2. Akusher-ginekologik kompleks bosh shifokorining vazifalari	105
6.3. Oilaviy poliklinikaning ayollar maslahatxonasi (bo'limi)	107
8. Tuman davolash-profilaktika muassasalari(MTB Markaziy tuman birlashmalari va b.)	
7.1. Tuman davolash-profilaktika muassasalari(MTB Markaziy tuman birlashmalari va b.)ning ish faoliyati xaqidagi umumiy ma'lumotlar.....	111
7.2. MTB boshlig'i hamda MTSh bosh shifokorining vazifalari	115
7.3. MTB bosh shifokorining ambulator-poliklinik yordam bo'yicha o'rinbosarining vazifalari.....	120
7.4. Tuman bosh pediatri vazifalari.....	121
7.5. Markaziy tuman shifoxonasining ordinator-pediater vazifalari	122
8. Qishloq davolash profilaktika muassasasi QVP	
8.1. Qishloq davolash profilaktika muassasasi (QVP) larning ish faoliyati xaqida umumiy xolatlar	122
8.2. QVP mudirining vazifalari	128
8.3. QVP moliya menejerining vazifalari.....	131
8.4. QVP da UASH ning vazifalari	135
8.5. QVP dagi doyaning vazifalari.....	138
8.6. Umumiy amaliyot xamshirasining QVP dagi vazifalari	141
9. Davolash-profilaktika muassasalaridagi asosiy xisob-kitob xujjatlari.	
9.1. Ambulator-poliklinik.	146
9.2. Shahar bolalar shifoxonasining asosiy xujjatlari	149
10. Davolash-profilaktika muassasalaridagi asosiy ko'rsatkichlar.	
10.1. Ambulator-poliklinik	154
10.2. Shifoxona ish faoliyati asosiy ko'rsatkichlari.....	158
11. Adabiyotlar	165

Kirish

Shifokor, qanday lavozimni egallashidan qat'iy nazar o'z ish hajmining ham ish tashkillashtiruvchisi-boshqaruvchisi ham amalga oshiruvchisi hisoblanadi.

Har bir bosh shifokorning boshqaruvida yoki shifokorlar yoki o'rta hamda kichik tibbiy hodimlar bo'ladi. Shifokorlar hamda o'rta tibbiy hodimlar birgalikda bo'lishlari ham mumkin. Egallagan lavozimiga ko'ra boshqaruvda bo'lgan qarashli kishilar soni 1-2 dan to bir necha bo'lishlari mumkin.

Har bir tibbiy lavozimdagi vazifalar va majburiyatlar o'ziga xos hususiyalarga ega, tashkillashtiruvchi-boshqaruvchi sifatida esa majburiyatlar umumiy xususiyatlarga egadir.

Barcha boshqaruvchilar, jumladan shifokorlar ham quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari kerak:

- 1) xushaxloqli, mustahkam-g'oyali, chuqur bilimlarga ega, boshqaruvchi sifatida keng dunyoqarashli bo'lishlari.;
- 2) Uziga xos aniq bir maqsadga yo'nalganligi uziga xos, vijdonli, yaxshilikga ishongan, faol va tashabbuskor bo'lishlari;
- 3) intizomli, ishbilarmon va o'z ishiga ijodiy yondoshish va o'z qaramogidagi ishchilardan ham berilgan ishlarga vijdonli yondashuvni talab qilish, har bir ishda samaradorlikka va natijaviylikka erishish, har doim yangilikka erishishlari; O'z vazifa va majburiyatlarini, vrachlik burchinii xaqqoniy va halollik bilan bajarishlari;
- 4) Kamchiliklarga betoqat bo'lish, to'g'ri tanqidga xolis qarashlik, o'z karamog'idagilari bilan yaqin munosabatda bo'lish va ularga murabbiy bo'lishlari;
- 5) O'z ishiga aloqador bo'lgan sog'lom kishilar va kasallar bilan xushmuomala bo'lish va bunga o'z xamkasabalarini o'rgatishlari.

Bu mavzuga oid, raxbar qanday unvonli va kasbidan qat'iy nazar qanday bo'lishi kerakligi xaqqida ko'pgina ilmiy va ommabop adabiyotlar mavjud.

Har bir rahbar aniq bir maqsad sari intiluvchan bo'lishi, o'zi boshqargan ishiga qiziquvchan, qo'rquv uchun emas balki vijdonan ishlashi, ishini, kasbdoshlarini, kollektivini sevishi kerak. Bunday rahbar ishi bilan shunday mashg'ul bo'ladiki o'z shaxsiy baxtsizliklari va muammolarini sezmaydi. Bunday raxbar beixtiyor o'z kasbdoshlarini mardlik sari yetaklaydi.

Maqsad sari intilish – bu shaxs erishmoqchi bo'lgan aniq biror bir narsaga erishishga xarakat. Har bir inson yaqin va uzoq maqsadlarga ega, lekin shaxsning maqsad sari intilishini nazarda tutilganida kundalik muammolar emas, katta ijtimoiy

maqsadlar tushiniladi.

Kasbiy bilimlarga egalik qilish uchun zarur:

- o'z sohasida yetakchi bo'lish, o'z bilimlariga tayangan holda to'laqonli va vakolatli barcha masalalarini hal qilish.

Ko'p manbalarda quyidagi tavsifnomalarni uchratish mumkin: boshqaruvchi aniq bir darajadagi kamtarlikka va u bilan bog'liq bo'lgan ishonchga ega bo'lishi kerak, undan tashqari, boshqa odamlarning ham mavjudligi va ular katta lavozimlarni egallamasalar ham u yoki bu vazifalarni bajara olishlarini esdan chiqarmasliklari darkor. Bularga ishonchning yo'qligi ishchilarning mustaqilligining kengligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Faqatgina bu sharoit yaratilgandagina barcha ishchilar hayotga qiziqishni va kollektivdagi ishning qiziqililigini, bu esa o'z navbatida yanada ishning samaradorligini oshiradi. har bir shifokorning ishi joriy, unumli va natijaviy bo'lishi kerak. Joriy ish—qachonki kerakli ishlar amalga oshirilganida aytiladi.

Natijaviy ish – qachonki biron bir aniq xarakatlardan kelib chikib ijobiy yoki kutilgan natija olinishiga aytiladi.

Samarador ish— qachonki aniq bir samara, kerakli natija olinishiga aytiladi. Xar bir rahbar mohir, tashabbuskor bo'lishi kerak.

Har bir shifokor nekbin (optimist) bo'lishi kerak. Nekbinlik(optimizm) kelajakka ishonch – tetiklik, hayotga bo'lgan shodlik, insoniyat rivojlanishining taraqqiyot tantanasi bilan sug'orilgan kuchli dunyoqarash.

Bu barcha sharoitlarga rioya qilish uchun albatta o'zining va xamkasabalarning vazifalarini va majburiyatlarini chuqur hamda har tomonlama mukammal bilish kerak. O'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz: talabalarni turli hil darajadagi rahbarlarning asosiy vazifalari bilan tanishtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida Mustaqillikka erishilgandan keyingi yillarda (1991y.) aholining sog'lig'ini mustahkamlashga ko'proq e'tibor qaratiladigan bo'ldi, tibbiy muassasalarning ish faoliyati va tuzilmasi kamolotga erishishi yo'li orqali, tibbiy xodimlarning malakalarini oshirish, tibbiy yordamni yaxshilash uchun sharoitlar yaratildi.

Respublikamizda oxirgi yillarda qator Qonunlar, Farmonlar, Qarorlar, Buyruqlar qabul qilindi. Sog'liqni saqlashni takomillashtirishga, aholi sog'lig'ini mustahkamlashga va faol umr ko'rishni uzaytirishga qaratilgan ko'plab dasturlar tasdiqlandi.

8 dekabr 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40 moddasida «Har bir fuqaro malakali tibbiy yordam olish huqukiga ega» ekanligi

ko'rsatilgan.

Respublikamiz Prezidenti Farmonlarida 10.11.1998 y., №PF-2107, 27.02.2003y., №PF-3214, 19.09.2007y., №PF-3923 dan hamda Prezident Qarorlarida 02.10.2007y. № 700dan, 18.03.2008y. №48dan, 13.04.2009y. №1096dan va boshqa dasturiy hujjatlarda tibbiy xizmatni takomillashtirish yo'llari va zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash yo'llari ishlab chiqilgan. Yuqorida aytib o'tilgan hujjatlarga asosan buyruqlar ishlab chiqilgan, hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi va Umumjahon Sog'liqni Saqlash Birlashmasi tomonidan qator dasturlar ishlab chiqilgan va rejalar tasdiqlangan. Ushbu o'quv qo'llanma talabalarning jamiyat sog'lig'i, sog'liqni saqlashni tashkillashtirish va boshqarish bo'yicha olgan bilimlariga, hamda har bir shifokorning egallagan mansabidan qat'iy nazar amaliy hayotidagi uchraydigan savollarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2 oktyabr 2007y. №PF-700 qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 sentyabr 2007y. dan №PF-3923 va 18.03.2008y. dan №PF48 farmoniga ko'ra tibbiy muassasalar o'z majburiyatlariga ega va ma'lum bir rejaga asosan quriladi, barcha tibbiy muassasalarning faoliyatini boshqaruvchi yonaltiruvchi a'zo bo'lib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi hisoblanadi.

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

1.1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining tuzilishi

2 oktyabr 2007 yil №PF700 tasdiqlangan qaroriga asosan Markaziy Apparat Tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Qaroriga 1 yanvar 2009 yil va ish faoliyatiga asosan tuzilishi:

- vazir, va 4 vazir o'rinbosarlari;
- Vazirning birinchi o'rinbosari– davolash-profilaktika yordami, tashxis va davolash standartlarini muvofiqlashtirish va ishlab chiqish, mahsus va statsionar tibbiy yordamni tashkillashtirish, birlamchi tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish, tibbiy-ijtimoiy muammolar guruhlar bo'limlari bo'yicha boshqaruvini tashkillashtirish va boshqarish;
- o'quv muassasalarida va ilmiy ishlar boshqarmasi ishilarini, ilmiy-tadqiqod ish faoliyati koordinatsiyasi bo'limini, o'quv muassasalari bo'linmalarini ish faoliyatlarini tashkillashtirish va boshqarish ;

- Vazir o'rinbosari, Sanitar-epidemiologik nazorati bosh boshqarmasi ish faoliyatini, sanitar-gigiyenik va epidemiologik bo'linmalarni, sog'liq va statistika markazlarini davlatning bosh sanitar shifokori boshqaradi va tashkillashtiradi;
- Vazir o'rinbosari onalik va bolalikni asrash bosh boshqarmasi ishini boshqaradi va tashkillashtiradi;
- Vazir o'rinbosari boshqaruvning moddiy-texnik bazasi bosh boshqarmasini rivojlantirish ishlarini, buhgalterlik hisobotlarni, ma'muriy-ho'jalik boshqarmalarini boshqaradi va tashkillashtiradi

Vazirning 4 o'rinbosarlari va ular boshqaradigan mutasaddi boshqarmalar hamda bo'linmalardan tashqari vazir tasarrufiga yana quyidagilar tegishlidir;

- kollegiya
- attestatsion tekshiruvning kotibiyati
- no'davlat muassalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini nazorat qilish va litsenziyalash;
- nazorat inspeksiya;
- iqtisodiyot va mablag' bilan ta'minlash bosh boshqarmasi;
- byudjet mablag'larini maqsadli sarflashni nazorati va tahlil qilish;
- Sog'liqni saqlash tizimidagi mablag'lar bilan ta'minlanganlik hamda rivojlanishni oldindan aytib berish bo'limi;
- hodimlar bo'limi;
- boshqaruv ostidagi apparat;

Sog'liqni Saqlash Vazirligi Respublika miqyosida boshqa bir qator vazifalar qatorida tibbiy xodimlarning kasbiy bilimlari oshirish bilan ham shug'ullanadi. Bularga o'quv kurslarini tashkillashtirish, malaka oshirish bo'yicha tsikllar, kollegiya kengashlari, maslaxat yig'ilishlari, s'ezdlar, konferentsiyalar, davlatlararo tashkilotlar YUNESKO, YUNISEF, BJSST va b. ishtirokidagi anjumanlar joriy qilish kiradi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligiga garashli tibbiy muassasalar

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi qaramog'iga tegishli:

- Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi va unga tegishli tuman filiallari, hamda tuman kasalxonalarining shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'limlari;
- 29 Respublika davolash-profilaktika muassasalari,
- 13 viloyat ko'p tarmoqli tibbiy markazlari va 13 viloyat ko'p tarmoqli bolalar

tibbiy markazlari,

- 197 tuman(shahar)tibbiy birlashmalari (markaziy, tuman poliklinikalari va markaziy tuman shifoxonasi), tuman dispanserlari va boshqa tibbiy muassasalar.
- 10 Respublika iqtisoslashtirilgan markazlari, 217 tuman iqtisoslashtirilgan shifoxonalari,tuman tibbiy muassasalari bilan bog'liq bo'lgan tug'ruq komplekslari, dispanserlar.
- 9 oliy ma'lumot muassasalari, oliygohlar qoshidagi litseylar va 81 o'rta tibbiy xodimlarni tayyorlovchi kollejlari.
- Salomatlik va tibbiy statistika instituti hamda uning 154 filiallari;
- OITS ga qarshi kurash bo'yicha Respublika markazi, 197 tuman(shahar) tibbiy muassasalari va kabinetlari bilan bog'liq bo'lgan 14 tuman markazlari bilan birgalikda.,
- Gematologiya va qon quyish ITI tuzilishiga kiruvchi qon xizmati va unga tegishli 16 viloyat qon quyish stantsiyalari;
- Respublika davlat sanitar-epidemiologik nazorat markazi, 14 tuman markazlari, 1 markaz Toshkent shahrida va tuman(shahar) tibbiyot muassasalari bilan aloqada bo'luvchi 197 tuman DSEN markazlari.
- shaxsiy tibbiy muassasalar.
- Sog'liqni Saqlash Vazirligi tuman boshqarmalari va 197 tuman(shahar) tibbiy muassasaldari orqali 3,1 mingdan ziyod QVPlar, bir necha o'nlab oilaviy poliklinikalar, akusherlik komplekslari, iqtisoslashtirilgan shifoxonalar va dispanserlar ishini boshqaradi.

2.SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING VILOYAT BOSHQARMALARI

2.1. Sog'liqni saqlash tizimining viloyat boshqarmalari ish faoliyati haqidagi umumiy ma'lumotlar

Sog'liqni Saqlash tuman boshqarmasi tuman hokimiyatida tuzilib o'z ish faoliyati davomida bevosita hokimiyatga va uning ijrochi qo'mitasiga, hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligiga bo'ysunadi.

Bu boshqarma tuman Sog'liqni Saqlash tizimini, tuman qaramog'idagi tibbiy muassasalar ishini boshqaradi va tuman aholisiga tibbiy yordamning sifati hamda sog'liqni saqlash tizimining holati va keyingi rivojlanishiga javob beradi.

Bu boshqarma quyidagilardan iborat:

1. Xodimlar sektori (boshqaruvchi va inspektorlar)
2. Moliyaviy rejalashtirish bo'limi (bo'lim boshlig'i va iqtisodchilar)

3. bosh mutaxassislar bo'limi(shtatga tegishi va shtatdan tashqari mutaxassislar mavjud).
4. 2- sektor.
5. Buhgalteriya (bosh buhgalter va buhgalterlar).
6. Texnik nazorat bo'limi.
7. Bosh injener (yangi inshootlarning loyihalarini tuzuvchilar) .

Tuman Sog'liqni Saqlash tizimi vazifalari

Tuman aholisining sog'lig'ini saqlash bo'yicha barcha choralarni rivojlantirish yo'llarini, tumanlar sharoitlarini hisobga olgan xolda tuman aholisining sog'lig'ini mustahkamlashga qaratilgan Sog'liqni Saqlash Vazirligi ishlab chiqqan dasturlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tasdiqlagan farmonlarini bajarish lozim.

Yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagilar hal qilinadi:

- aholining sog'lig'i xolatini o'rganadi, tuman va shaharlar Sog'liqni Saqlash bo'limlari ma'lumotlarini tahlil qiladi, joylardan tushgan takliflarni inobatga olgan holda kasalliklarni oldini olish, kasallanish ko'rsatkichini pasaytirish, nogironlik va o'limni kamaytirish, keyinchalik aholining aktiv hayotini uzaytirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi . Sog'liqni saqlashning alohida yo'nalishlari bo'yicha viloyatlar va tumanlarga mos dasturlar ishlab chiqadi, sotsial kasalliklarga, onalik va bolalikni asrashga alohida e'tibor qaratadi;

- boshqarma va muassalarni malakali xodimlar bilan ta'minlaydi, xodimlarning malakalarini oshirish va o'qitishni ta'minlaydi, xodimlarning ishlariga vijdonan to'g'ri tarbiyalash va DPM dagi mehnat intizomiga rioya qilish bo'yicha ish olib boradi. ;

- aholiga tibbiy-profilaktik yordamni ta'minlash bo'yicha viloyat sog'liqni saqlash muassasalariga metodik hamda tashkiliy qo'llanmalar yaratish; malakali tibbiy yordamning aholiga yaqinlashuvi va kamoloti uchun rivojlantiruvchi tadbirlarni ijro etadi;

- Viloyat sog'liqni saqlash muassasalari ishi ustidan nazorat qiladi. Onalik va bolalikni asrash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayollarning yashash tarzi va dam olish sharoitlarini yaxshilash, bolalar va o'smirlar orasida chiniqtiruv muolajalarni o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish; bolalarning oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishni va mahsulotlarni sotish bo'yicha savollarni hal qilish, hamda maktabgacha bolalar ta'lim muassasalari va o'quv muassasalarida qay bir idora boshqaruvida bo'lishidan qat'iy nazar bolalarning sog'liqlarini nazorat qiladi;

- ishchi va dehqonlarning qisqa muddatga mehnat qilishga layoqatlilikining yo'qolishi va xodimlarning kasallanishini o'rganadi, hamda mos keluvchi

korxonalar bilan birgalikda kasallanish ko'rsatkichini pasaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi;

- davolash-profilaktika muassasalarida qisqa muddatli ishga yaroqsizlik bo'yicha ekspertiza tashkil qiladi, qabul qilingan qo'llanmalarga asosan ishchilarga kasallik varaqalari berilishini uyushtiradi;

- qonunga mos ravishda ishga kirishdan oldingi va ish faoliyati davomidagi davriy tibbiy ko'riklarni hamda davolovchi tibbiy ko'riklarni uyushtiradi;

- muassasa va idoralarda, ishlab chiqaruvchi korxonalarda sanitar-epidemiologik me'yorlarni kasaba ushmalarini tarmoqlari bilan birgalikda sanitar-epidemiologik xizmat orqali nazorat qiladi;

- mehnat qo'mitasi va sotsial himoya bilan birgalikda mehnatga layoqatlilikning turg'un buzilishi sabablarini o'rganadi;

- davolash-profilaktika muassasalaridan VTEK ga yuborilgan bemorlarning yo'llanmalarining asoslarini tekshiradi;

- mehnatga turg'un layoqatsizlikni yo'qotish maqsadida kasallarning sog'liqlarini tiklashga qaratilgan davolanish muolajalarini tashkillashtiradi;

- nogironlarni tibbiy va mehnat rehabilitatsiyasini, sotsial himoya va qiziquvchi muassasa, korxona hamda birlashmalar bilan birgalikda amalga oshirish;

- sanitar-epidemiologik xizmatni qay bir muassasaga qarashliligidan qat'iy nazar davlat tomonidan o'rnatilgan tartibda sanitar nazorat qilish va metodik boshkarishni uyushtirish, tumanning tegishli sanitar xolati yuzasidan choralar ko'rish, aholi o'rtasida tibbiy ilmiy va gigiyenik targ'ibot ishlarini tashkillashtiradi, aholini sog'lom turmush tarziga o'rgatadi;

- barcha muassasa, korxona va birlashmalarining sog'liqni saqlashga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish ishlari faoliyatini, aholining sanitar-epidemiologik holati bo'yicha, infeksiyon kasalliklarni oldini olish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qilishda qatnashadi;

- tuman hududida epidemik kasalliklarni tarqalishi va ularning tarqalishiga xavf yoki epidemik kasalliklar tarqalishi holatlarida belgilangan tartibda boshqaradi, bu kasalliklarning tarqalmasligini oldini olishga qaratilgan hamda yo'qotishga qaratilgan o'ziga xos sharoitlarda mehnat faoliyati yo'lidagi xarakatlanishni boshqaradi;

- sog'liqni saqlash muassasalarini rivojlantirish va qayta tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, moddiy texnik bazasini mustaxkamlash, qishloq yordamchi ho'jaliklarini rivojlantirish ishlarini bajaradi;

- dalillarga asoslangan tibbiyotni qo'llagan xolda fan, ilm, texnika yutuqlarini

davolash-profilaktika muassasalariga o'z vaqtida qo'llashni va joriy qilishni ta'minlaydi;

-davolash-profilaktika muassasalarining aholisini dori-darmonlar bilan hamda tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlashda qatnashadi, bor dori-darmonlar haqqidagi ma'lumotlar bilan shifokorlar, boshqa tibbiyot xodimlarini ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish;

- tashqi muhitni sog'lomlashtirish qoidalariga rioya qilish, suv xavzalarini sanitar qo'rig'i, tuproq, atmosfera xavosini viloyat sanitar-epidemiologik stantsiya orqali davlat nazoratini tashkillashtiradi;

- shaharlar, boshqa aholi yashovchi punktlarda, maskanlar va umumiy aholi turar joylarida shovqin-suronlarni kamaytirish va yo'qotishga qaratilgan chora tadbirlarni tashkillashtirishda ishtirok etadi;

- kurortlar sanitar okruglari qo'riqlash chegaralarini belgilash savollarini hal qilishda va ularning tartiblarini belgilashda qatnashadi.

- jismoniy tarbiya va sport bilash shug'ullanuvchi kishilar sog'liqlariga qaratilgan tibbiy nazoratni hamda, aholi orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga yordam;

- sud-tibbiy va sud-psixiatrik ekspertizalari muassasalari ishini tashkillashtiradi;

- viloyat, shahar hududida fuqarolar muxofazasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- sog'liqni saqlash tizimi va unga tegishli bo'lmagan muassasalarda moliyaviy-rejali ishni tashkillashtiradi, qator sog'liqni saqlash tizimi muassasalarining kelajak va yillik rejalarni tuzadilar, viloyat byudjetida turuvchi tashkilotlarning shtat va smena jadvallarini tuzadilar va ularni mablag' bilan ta'minlaydilar;

- idoraga qarashli bo'lgan muassasa va tashkilotlarda birlamchi hisobni tashkillashtiradi va statistik hamda buhgalterlik hisobotlarni tashkillashtiradi, jamlovchi buhgalterlik hisobotlarni va muvozanatlarni tuzadi. tegishli muassasalarga bu ma'lumotlarni taqdim etadilar;

- idoraga qarashli bo'lgan tashkilotlarni va muassasalarni davriy tekshirish va qayta ko'rib chiqish, ijtimoiy mulkni asrashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etadi;

- qo'shilgan kapital mablag'larning sarflanishini samarasini ta'minlaydi, yangi inshootlarni barpo qilishni, joylashuvini va o'z sohasiga tegishli bo'lgan kapital qurilish va ta'mirlashga qaratilgan masalalarni hal qiladi.;

-idoraga qarashli bo'lgan muassasa va korhonalarning moddiy-texnik ta'minotini taminlashni tashkillashtiradi, ajratilgan fondlar va ularning ishlatilishi bo'yicha

nazoratni amalga oshiradi ;

- viloyat aholisidan kelib tushgan takliflar, arizalar va shikoyatlarni ko'rib chiqishni va hal qilishni tashkillashtiradi, shikoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni yo'qotishga qaratilgan choralarni ko'radi.;

- sog'liqni saqlashga haqqidagi qonunlarni aholiga tushuntirish bo'yicha ishlarni tashkillashtiradi;

- har oyda viloyat yig'ilishlari, konferentsiyalar va seminarlar o'tkazib, ularda muhim masalalar hamda sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni joriy qilish haqidagi savollar muhokama qiladilar, Sog'liqni Saqlash Vazirligi va Oliy o'quv yurtlari bilan, hamda xorijiy davlatlar bilan aloqalarni doimiy tutib turadi;

- O'zbekiston Respublikasi maslahat kengashlarida qatnashadi;

- O'zbekiston Davlat Respublikasi hamda Sog'liqni Saqlash Vazirligiga tegishli qarorlar, qonunlar va farmonlardan kelib chiqqan holda qo'shimcha tadbirlarni o'tkazadi.

2.2. Sog'liqni saqlash tizimining viloyat boshqarmalari boshlig'ining vazifalari:

- boshqarmaning faoliyatini boshqarib va boshqarmaga yuklatilgan majburiyatlarni boshqarish bo'yicha javobgar hisoblanadi;

- sog'liqni saqlashni boshqarishga qaratilgan savollarni hal qilishni, loyihalarni viloyat xokimiyatining ko'rib chiqishiga olib chiqadi.

- o'z boshqaruv sohasidan chetga chiqmagan holda xokimiyat va sog'liqni saqlash Vazirligi buyruqlarini, hamda yuqori turuvchi davlat boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqilgan masalalarni boshqaradi, ularning joriy qilinishini tekshiradi, va xokimiyatning boshqa boshqaruv a'zolari bilan birgalikda buyruqlar ishlab chiqadi;

- boshqaruv xodimlarini mehnat haqidagi qonunga asosan ishga olib, ishdan chetlaydi;

- tasdiqlangan xarajatlar smenasiga mos ravishda pullar bilan ixtiyoriy ravishda boshqaradi;

- sog'liqni saqlash tizimi, idoraga qarashli viloyat boshqaruvi tuzilish bo'linmalari xaqida nizomni tasdiqlaydi;

- bo'limlar bo'yicha sog'liqni saqlash tizimida ishlab chiqilgan dasturlarni nazoratni o'rnatadi;

- sog'liqni saqlash tizimi ishchilarining mehnat va kasbiy intizomni buzi lishi xolatlarida ma'muriy sanksiyalar qo'llaniladi.

2.3. Sog'liqni saqlash tizimining viloyat boshqarmalari boshlig'i profilaktika va davolash ishi bo'yicha o'rinbosarining vazifalari

1. Boshqariluvchi bo'linmaning rivojlantirish bo'yicha kompleks rejalar ishlab chiqishda qatnashadi;
2. Viloyat davolash-profilaktika muassasalarini davriy ravishda tekshirish yo'llari orqali, tibbiy yordam holatini o'rganadi.
3. Idoralarga qarashli va Sog'liqni Saqlash Vazirligiga qarashli muassasalar hamda tashkilotlardan, boshqaruvchi hizmatlardan olingan statistik ma'lumotlarni tahlil qiladi va ularni aholi tibbiy-profilaktika yordamini tashkillashtirishni belgilangan tartibda tashkilotlarning boshqaruvi va ish faoliyatini rivojlantiradi. , Davolovchi-profilaktika muassasalarning davolash-maslahat yordamni tashkillashtiradi.
4. Alohida mutaxassislar va davolash-profilaktika muassasalarining ilg'or ish tajribalarini o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi.
5. Dalilliy tibbiyotga asoslangan holda fan, ilm, texnika yutuqlarini davolash-profilaktika muassasalariga ayniqsa aholi orasida ayollar va bolalarning kasalliklarini profilaktika, diagnostika va davolashni o'z vaqtida qo'llashni va joriy qilishni qo'llaydi.
6. Konferentsiya, seminarlar va b.orqali shifokorlar hamda o'rta tibbiy xodimlarning malakalarini oshirish bo'yicha kelajak rejalarni rivojlantirishda ishtirok etadi.
7. Davolovchi-profilaktik muassasalarning zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar, dori-darmonlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganadi.
8. Ayollarga va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordamning sifatini va muassasa ustidan tushuvchi shikoyatlarning sabablarini o'rganadi va ularni bartaraf etadi.
9. Aholi sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan dasturlarni nazorat qiladi.
10. Viloyatning idoraga qarashli va bosh mutaxassislarning ish faoliyatlarini boshqaradi.

Viloyatning sog'liqni saqlash boshqarmasi davolash va profilaktika ishlari bo'yicha boshliq o'rinbosarining huquqlari :

1. Davolash-profilaktika muassasalari ishlarini tekshirishda qatnashish va ularning ish faoliyatlarini yaxshilash maqsadlarida chora-tadbirlarni ishlab chiqish.
2. Davolash- profilaktika muassasalarining umumiy va ixtisoslashtirilgan tibbiy

yordam faoliyati darajasini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, hamda ularga bo'ysinuvchi muassasalar ixtiyoriga taqdim etish.

3. Tibbiy yordam sifatini yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarish maqsadida boshqaruv ruxsati bilan mutaxassislar va ilmiy tibbiy birlashmalar bilan maslahatlashish, kengashlarda ilmiy, tashkiliy va uslubiy savollarni hal qilish.
4. Davriy ravishda o'z bilimlarini va profilaktika hamda davolash bilan shug'ullanuvchi tibbiy xodimlarning malakalari va bilimlarini oshirib turish, bu ishning usuli, shakli va uslublarini yaxshilaydi. Aholi orasida tibbiy ilm va sog'liqni saqlashning yutuqlarini daliliy tibbiyotga asosan faol targ'ibot qilish.

2.4.Viloyat bosh pediatri vazifalari

- boshqaruvchi bo'limning rivojlanishi va takomillashuviga oid kompleks dasturlar va rejalar ishlab chiqishda qatnashish;
- davolash-profilaktika muassasalarini davriy ravishda shaxsiy tekshiruvlar orqali sog'liqni saqlash tizimini va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam holatini va sifatini o'rganish;
- Idoraga qarashli muassasalardan, sog'liqni saqlash tizimidagi muassasalardan boshqarma orqali olingan, bolalar kasallanishi, go'daklar va bolalar o'limi ko'rsatkichlarining statistik ma'lumotlarni taxlil qiladi, bu ma'lumotlarga asoslanib davolash-profilaktika muassasalarini davolash ishlari bo'yicha bolalar aholisiga ko'rsatiladigan tibbiy yordamni yaxshilash;
- bolalarga davolash-profilaktika muassasalaridagi davolash-maslahat yordamini tashkillashtirish;
- bolalar salomatligi bo'yicha davolash-profilaktika muassasalari va bolalar hamda go'daklar o'limi ko'rsatkichlari bo'yicha tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va tarqatish;
- viloyatdagi davolash va profilaktika muassasalariga butunjahon ilm yutuqlarini, dalillarga asoslangan tibbiyotning tajribasi, ish olib borish uslublarini bolalar kasalliklarining profilaktika, diagnostika va davolash ishlariga singdirish;
- umumiy amaliyot shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlarning malakalarini oshirish bo'yicha kelajakka bo'lgan rejalarni ishlab chiqishda qatnashish;
- bolalar davolash-profilaktika muassasalarini dori-darmonlar bilan hamda tibbiy asbob-uskunalarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish;
- aholi tomonidan bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam hamda tibbiy yordamning

sifati yuzasidan muassasa ustidan tushgan shikoyatlarning sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Bosh pediater huquqlari:

- bolalarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi bolalar davolash-profilaktika muassasalarini(poliklinika, DDU, QVP, shifoxoni va b.) tekshirishda ishtirok etish va ularning ishlarini yaxshilashga chora tadbirlar tayyorlash;
- viloyat davolash-profilaktika muassasalari ish faoliyati, iqtisoslashtirilgan bolalar tibbiy yordami darajasini ko'tarish bo'yicha takliflarni viloyat sog'liqni saqlash tizimi boshqarmasining hamda unga qarashli muassasalarning qaramog'iga olib chiqish;
- bolalar aholisi orasida to'g'ri turmush tarzini tarbiyalashga oid ishlarda faol ishtirok etish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining « hududiy sog'liqni saqlash tizimi muassasalarining tashkiliy tuzilishi va takomillashuvi chora tadbirlari to'g'risida» qaroriga asosan 18.03.2008 y. № 48 tibbiy muassasa tuzilmalari va qarorlari tasdiqlangan .

**3. KO'P TARMOQLI TIBBIY MARKAZ HAMDA BOLALAR KO'P
TARMOQLI MARKAZI.**

**3.1. Ko'p tarmoqli tibbiy markaz hamda bolalar ko'p tarmoqli markazlari ish
faoliyati haqida umumiy ma'lumotlar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 sentyabr 2007 yil №PF 3923 « Sog'liqni Saqlash Davlat dasturini rivojlantirish va reformalarni chuqurlashtirish bo'yicha keyingi yo'nalishlari haqida»gi farmoniga asosan viloyat shifoxonalari qoshida hamda viloyatning boshqa iqtisoslashtirilgan bolalar shifoxonalarining bo'limlarida tashkillashtiriladi. Aholiga yuqori malakali statsionar, ambulator va maslaxat-tashhis xizmat ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasasi bo'lib hisoblanadi.

2. Markaz davlat muassasasi standartida yaratiladi, o'zi mustaqil yuridik yuz hisoblanib, o'z mustaqil balansiga, gerbli muxriga, banklardagi hisob raqamlariga va boshqa ish jarayonidagi kerakli hujjatlarga ega.

Markaz - tibbiy va farmatsevtik xodimlar uchun o'quv malaka oshirish bazasi hisoblanadi.

3. Markaz o'z ish faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlari, buyruqlari, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining farmonlari va qarorlari, Sog'liqni Saqlash Vazirligining qarorlari aktlaridan foydalaniladi.

II. MARKAZLARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

4. Markazni tuzishda maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

Bolalarning ko'p tarmoqli tibbiy markazlarida aholining katta yoshli va bolalarga asosiy tibbiy yo'nalishlar bo'yicha (rejali jarrohlik, terapiya, kardiologiya, otorinolaringologiya) malakali tibbiy yordamga, diagnostikadagi, davolash va profilaktikaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;

Viloyatning bolalar tibbiy markazlariga tibbiyotning yangi texnologiyalarini, usullarini kiritish va qullash bo'yicha metodik taminlash .

5. Markazning asosiy vazifalari:

Kattalarning markazlarida –kattalarga, bolalarnikida-18 yoshgacha bo'lgan bolalarga yuqori malakali tibbiy yordamni tashkillashtirish va kasallarni tekshirish.;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tasdiqlagan klinik standartlarga asoslanib kasallarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish;

Tuman(shahar) tibbiy birlashmalaridagi xodimlariga maslahat va tashkiliy uslubiy yordamni ko'rsatish;

Davolash-profilaktika muassasalarining amaliyotiga yangi tibbiy texnologiyalarni va boshqarishning iqtisodiy usullarini kiritish ;

Kattalar va bolalar markazlari xodimlarini o'qitish, malakalarini oshirish va qayta o'qitish ishlarida qatnashish;

Davolash muassasalarida davolash-diagnostika ishlari sifatini ekspertiza qilish;

Aholining umumiy kasallanishi, o'limi, ishga vaqtinchalik layoqatsiz bo'lishi va nogironliklarini o'rganish (kattalar va bolalar markazlarida);

Kattalar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordamni maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va qullash.

III. MARKAZLARNING BURCH VA MAJBURIYATLARI

6. Qonunga mos ravishda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish uchun markaz quyidagi huquqlarga egadir::

uning hisobiga o'tgan davlat mulkini ishlatish va boshqarish ;

asosiy mulklarni ijaraga olish, berish va kreditlar olish, grantlar, kreditlar, qarzlar va b. larni olish va berish ;

markazning xodimlariga beriladigan oylik maoshalari kattaliklari, moddiy

raxbatlantirish va pullik tibbiy yordamning samaralarini o'zi mustaqil belgilashi;

ilmiy tadqiqodlarni qilish maqsadidagi davlat grantlarini olish bo'yicha musobaqalarda ishtirok etish;

kattalar va bolalar markazlaridagi ho'jalik faoliyatlarini yuritishda intellektual mulkga bo'lgan mualliflik huquqlarini olish va ishlatish

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga va davlatlararo shartnomalarga asosan chet el yuridik yuzlari bilan ilmiy va ilmiy –texnik hamkorlikni amalga oshirish;

Markazning ishiga, qonunlariga zid kelmagan boshqa faoliyatlarni amalga oshirish .

7. Markaz Sog'liqni Saqlash Vazirligi bilan kelishilgan holda ko'rsatadigan pullik tibbiy yordamga va boshqa qiladigan ishlariga narx navoni quyish huquqiga ega

8. Markazlar quyidagi majburiyatlarni bajarishlari lozim:

Aholiga malakali yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishi kerak:

Davlat tomonidan muhtojlarga, imtiyozlarga ega aholi qatlamiga bepul ambulator yordam ko'rsatish;

Imtiyozsiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi aholisi hamda fuqaro bo'lmagan, chet el fuqarolariga tulov asosida;

Diagnostika va davolash standartlariga mos ravishda tibbiy yordam berish;

Viloyat tibbiy-profilaktika markazlari hamda boshqa tibbiy muassasalar xodimlarining o'qishini, qayta o'qishini va malaka oshirishlarini doimiy ta'minlash;

Oldinda turgan tibbiy muassasalarning ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq qilish;

Markaz xodimlariga mehnatni tashkillashtirish va xaq tulash, yongin xavfsizlitgini ta'minlash, ijtimoiy ta'minot va himoyalarni qonunlariga mos ravishda kafolat berish;

Markazning moddiy texnik bazasini tibbiy texnika va tibbiy texnologiyalar bilan rivojlantirish va mustaxkamlash;

Mulklarni maqsadli ishlatish va uning saqlanishini ta'minlash;

Qonunlarga mos ravishda buhgalterlik va statistik hisobotlarni olib borish.

MARKAZNING FAOLIYATINI BOSHQARISH

- Markazni boshkarishni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vaziri tomonidan ishga olinadigan va ozod etiladigan, xokimning alohida belgilangan boshqarma hududidagi ko'rsatmasiga asosan bosh shifokor amala oshiradi.

- Bosh shifokor o'rinbosarlarga ega. Markaz bosh shifokori O'zbekiston

Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vaziri bilan kelishilgan holda o'rinbosarlarini ishdan oladi va ishga tayinlaydi.

- Markaz bosh shifokori belgilangan tartibda Markazning ish faoliyatini boshqaradi ,

- Markazdagi ishlarni tashkillashtiradi, markaz nomidano'zi ishonchnomasiz barcha muassasalarda markaz qizikishlarini namoyish etadi, Markazning mulkini boshqaradi, shartnomalar shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, banklarda hisoblar ochadi, ishonchnomalar beradi, moddiy jihatdan mablaglarni boshqaradi, shtatlarni tasdiqlaydi, buyruqlar ishlab chiqadi va Markazning ish faoliyati davomidagi natijalarga o'zi mustaqil javobgar shaxs hisoblanadi .

- Markazning bosh shifokori yo'qligi holatlarida uning vazifalarini hududiy sog'liqni saqlash tizimi boshqarmasi bilan maslaxatlashgan holda o'rinbosarlaridan biri boshqaradi.

V. MARKAZNING MODDIY XO'JALIK FAOLIYATI

- Markazning moddiy ho'jalik faoliyati qonunga mos ravishda amalga oshiriladi.

- Markaz o'z faoliyatiga mos ravishda o'z mulkini boshqaradi, ishlatadi va egalik qiladi, shu bilan bir qatorda byudjet hamda byudjetdan tashqari mablag'larni samarali sarflashini ta'minlaydi.

- Markazning mulki asosiy jamg'arma hamda boshqa moddiy qimmatliklar va moddiy resurslardan iborat.

- Markaz shartnoma asosida ishlatilmaydigan xonalarni ijaraga berib ulardan chiqqan mablaglarni Markazning rivojlanishiga sarflash hamda qonunda ko'rsatilgan tartibda Markaz balansidagi mulk va asbob-uskunalarni hisobdan chiqarish huquqiga ega .

- Markazning moddiy ta'minoti davlat hamda boshqa qonunga hilof bo'lmagan nodavlat tashkilotlari mablaglari hisoblanadi.

- Markazning moddiy ta'minoti davlat byudjetidan qonun doirasida tasdiqlangan sarf-harajat tahlillariga asosan hududiy xazinalar orqali amalga oshiriladi.

VI.QAYD VA HISOBOTLAR

- Markaz qonunga mos ravishda buxgalterlik qaydlarni va hisobotlarni olib boradi, hamda ularni O'zbekiston Respublikasi statistika davlat komitetiga va sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etadi, muhokama qilingan ruyhatlarga asosan ho'jjatlarni saqlash va topshirishga javob beradilar

- Markazning moddiy-ho'jalik ishlari bo'yicha tekshirishlar va nazoratni sog'liqni saqlash organlari hamda moliya, moddiy organlar, shartnomalar asosida boshqa davlat muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

- Markaz privatizatsiya va sotib olinishga layoqatli emas.

- Markaz reorganizatsiyasi va likvidatsiyasi qonunga mos ravishda olib boriladi.

3.2. Viloyat ko'p tarmoqli markaz bosh shifokorining vazifalari

1. Bosh shifokor viloyat bolalar markazini mahalliy aholiga tayangan holda holis o'zi boshqaradi: markazning davolash-profilaktika, tashkiliy-uslubiy, boshqaruv-ho'jalik va moddiy ta'minoti ishlariga javob beradi.
2. Bosh shifokor lavozimiga malakali mutahasis shifokorlardan tayinlanadi. U davolash va tashkiliy ishlarda kerakli tajribaga ega va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan ishga olinadi va ishdan chetlatiladi.
3. Viloyat bolalar markazining bosh shifokori o'ziga qarashli sog'liqni saqlash organlariga bo'ysunadi.
4. Viloyat bolalar markazining bosh shifokori markaz hakidagi nizomga, sog'liqni saqlash organlari va yuqori turuvchi organlarning qarorlari, qonunlari va qoidalariga asosan ish faoliyatini olib boradi

A. Bosh shifokor markazning asosiy vazifalariga asoslanib, quyidagilarga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqaradi va amalga oshiradi:

- Viloyat bolalar aholisini tibbiy xizmati bo'yicha sifatni va ish madaniyatini oshirish bo'yicha, yuqori malakali statsionar va poliklinik(maslaxat) tibbiy xizmatlarini amalga oshirish;

- bolalarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi qishloq va shahar davolash-profilaktika muassasalarining tashkiliy-uslubiy darajasini oshirish;

- bolalarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiy xodimlarning malakalarini doimiy oshirish bo'yicha shug'ullanadi

B. Tashkillashtiradi:

- viloyatdagi bolalarning kasallanish, bolalar va go'daklar o'limini sabablarini o'rganish, ko'p tarqalgan bolalar kasalliklarini kamaytirishga va keyinchalik yoqotishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqadi,;KVP va TMK larda bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordamni sifatini oshirish bo'yicha ishlarni ;

- Viloyatdagi qishloq va shahar davolash-profilaktik muassasalarning shifokor umumiy pediatri lari va o'rta xodimlarni malakalarini oshirish bo'yicha chora

tadbirlarni ishlab chiqadi;

- Viloyat, Respublika, xorijiy mamlakatlarning bolalarga ko'rsatadigan tibbiy yordamni davolash-profilaktik muassasalardagi tibbiy xizmatni darajasini oshirish va o'rganish, umumlashtirish va yangi tibbiy ma'lumotlarni tarqatish ishlarini ;

V. Ta'minlaydi:

- markazning barcha struktur bo'linmalari orasidagi aniq tashkiliy bo'lish va ishlardagi tashkiliy hamda ishlardagi bog'likliqni ta'minlash:

- bolalar aholisiga davolash-profilaktik yordamni ko'rsatish bo'yicha tumanlarning , viloyatlararo tibbiy muassasalar orasida rejaviy-maslahat ishlarini yo'naltiradi;

- dalillarga asoslangan tibbiyotning natijalari va kasal bolalarni davolash , viloyat bolalar markazlari ish faoliyatlariga zamonaviy profilaktika, diagnostika va davolashning usullarini o'zlashtirish va ish faoliyatlariga keng qo'llash

- viloyat bolalar tibbiy markazida kasal bolalarning parvarishi va tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkiliy shakllarning va ish uslublarining rivojlanishi hamda takomillashtirilishi;

- ishchi xodimlarning arizalarini, shikoyatlarini va takliflarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va ularning har birini amalga oshirish uchun nazorat olib borish;

- statsionar va poliklinikalarda barcha xolatlarni o'z vaqtida aniqlash va tekshirish (to'satdan o'lim, o'z vaqtida ko'rsatilmagan tibbiy yordam, ichki infeksiyalari, avariya xolatlari va b.); yuqori organlarga tekshiruv natijalari va aniklangan xolatlar bo'yicha bajarilgan ishlarni belgilangan vaqt oraligida hisobot berish ;

- Markazning faoliyati hakidagi yillik va kvartallar bo'yicha bo'lgan statistik, moliyaviy, ho'jalik ishlari bo'yicha bo'lgan hisobotlarini, byudjeti haqidagi ma'lumotlarni sifatli tayyorlash va yuqori turuvchi muassasalarga takdim etish.

- doimiy ravishda o'z ish faoliyati haqida yuqori turuvchi sog'liqni saqlash organlariga, mahalliy muassasalarga va aholiga hisobot berish;

- mahalliy kengash ishida va uning ishi uchun kerakli sharoitlar yaratishda doimiy ishtirok etish .

Viloyat bolalar markazlari ish faoliyatining sifatini va ish madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyatlarni keng qo'llashga qaratish va moddiy-texnik bazani mustaxkamlash;

G. Javobgar:

- xozirgi davr talablariga mos rivojlangan fan va texnika darajasida markazda bolalarni tekshirish sifati , davolash va parvarish sifatlariga ;

- markazdagi bor kuch va xizmatlarning to'g'ri sarflanishiga: asosiy jamgarma (inshoatlar, asbob-uskunalar va b.) tibbiy anjomlar va tibbiy xodimlar;

- kasal bolalarni tekshirish va davolashga karatilgan ishlarning sifatini ko'tarish , bolalar tibbiy ko'riklari sifatlarini ko'tarishga va o'z vaqtida yangi ochilgan rezervlarni topish va qo'llashga;
- fuqarolar muxofazasi va boshqa maxsus buyruqlarni bajarishga shifoxonaning tayyorgarligiga ;
- markazning moddiy-texnik bazasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga(ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, yangi jihozlar bilan ta'minlash, tibbiy anjomlar va dorilar bilan ta'minlanganlik);
- moliyaviy mablag'larni, dorivor moddalarni va b. maxsulotlarni tejamli va maqsadli;
- qo'llanilgan yo'riqnomaga asosan kasallik varaqalarini saqlash va ro'yxatiga olishni tashkillashtirishga;
- markaz va uning hududi atrofini ko'klamzorlashtirish va obodonlashtirishga;
- yongin xavfi tugilganida kasallarning tasdiqlangan evakuatsiya rejasi bajarilishi va yongin oldini olish tadbirlarini bajarilishining nazoratiga.

D. Viloyat bolalar markazining bosh shifokori quyidagi huquqlarga ega:

- xodimlarni ishga olish va ishdan ozod qilish;
- xodimlarni ra'batlantirish va ularga jarima solish;
- qaror va buyruqlar chiqarish;
- Xukumat organlarida, sud, jamoat va boshka tashkilotlarda markaz vakili sifatida ishtirok etish;
- markaz nomidan qonun doirasidan chiqmagan holda kreditlar olish va berish, shartnomalar tuzish, majburiyatlarni zimmasiga olish va boshka xarakatlar qilish;
- zaruriyat tug'ilganida viloyat bolalar markazi mutaxassis-shifokorlarini davolash profilaktika muassasalaridagi ishlarni tashkillashtirish va diagnostika, davolash,, profilaktikaning yangi usullarni o'zlashtirishda amaliy yordam berish maqsadida tumanlarga yuborish;
- Sog'liqni saqlash mutasaddi organlari bilan kelishilgan holda bosh shifokorlarni, tuman tibbiy bo'limlari bosh shifokorlarini, qishloq vrachlik punktlari boshliqlarini, hamda bosh (katta) hamshiralarni viloyat bolalar markaziga ishlarni tashkillashtirish, shifoxonani boshkarish, ho'jaliklarini yuritish bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish o'qishiga jalb etish ;
- Shifoxonaning ichki tartib-qoidalarini buzganligi tufayli bemorga shifoxonadan muddati chiqmagan holda javob berish.;
- Ayrim xolatlarda istisno tarikasida patologoanatomik yorishni o'tkazmaslikka ruxsat berish;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangan va

farmakologiya komiteti ko'rib chiqqan dori moddalari bilan davolashning yangi usullarini qo'llashga ruxsat berish, hamda dalillarga asoslangan tibbiyot takliflariga va farmakologik komitet qaroriga asosan.

E. Viloyat bolalar markazining bosh shifokori majburiyatlari :

- yuqori tashkilotlarning buyruq, qaror, yuriq-uslubiy topshiriqlarni yetkazish va ularning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;
- yangi usullar, profilaktika vositalari, tashxis va davolash hamda ilgor, eng yaxshi davolash-profilaktika muassasalarning tajribasi va dalillarga asoslangan tibbiyot tavsiflari bilan tanishtirib borish;
- kasal bolalarga xizmat ko'rsatishda statsionar va poliklinika (maslaxatxona)orasidagi xamkorlikni ta'minlash hamda qisqa muddatda bolalarni maslaxat poliklinikalarida tekshiruvdan o'tkazish;
- tekshiruvdan o'tkazish sifatini, davolash va statsionardagi bolalarga sharoit yaratish hamda xizmat ko'rsatayotgan tibbiy xodimlarni xarakatlarini doimiy nazorat qilish.;
- markaz ish rejasini tuzish va uning bajarilishini ta'minlash;
- quyidagilarni ko'rib chikish va tasdiqlash:
- markazning tuzilma bo'limlari ish rejalarini;
- statsionar va poliklinikalardagi shifokor- ordinatorlarning ish jadvalini ;
- markazning ichki tartib qoidalari hamda tibbiyot xodimlarining harakatlari to'g'risidagi yo'riqnomalarni;
- tashkillashtirish va doimo o'tkazish:
- markaz xodimlarining maslaxat yigilishlarini va shifoxona kengashlarini;
- navbatchilik davomida bo'lib o'tgan asosiy voqealar hakidagi navbatchi shifokorlarning ma'lumotlarini eshitish maqsadida anjumanlar uyushtirish;
- statsionar va poliklinikalardagi bo'limlarda, xonalar hamda boshqa tibbiy tuzilmalarda rejali va navbatdan tashqari (jumladan tungi) tekshirishlar o'tkazish ;
- o'rinbosarlarining va tibbiy tuzilma boshliqlarining o'tkazgan ishlari tugrisidagi hisobotlarini eshitish

Bosh shifokor yoqligida uning vazifalarini urinbosarlaridan biri (poliklinika bo'yicha KTBKVTM urinbosari). KTBKVTM ning asosiy bo'limlaridan biri poliklinika bo'limi hisoblanadi.

Ko'p tarmoqli bolalar konsultatsiya poliklinikasi viloyat tibbiy markazi

- zamonaviy ilmiy-amaliy tibbiyot erishgan yutuklariga asoslangan xolda viloyat va tumanlar davolash-profilaktika muassasalaridan tashxisni aniqlash va tasdiqlash uchun yuborilgan kasallarga yuqori sifatli shifokor-maslaxat yordamini ko'rsatadi va ularning keyingi davolanishi haqidagi masalasini hal qiladi;

- viloyat tumanlaridan kasallarni maslaxat poliklinikalariga yuborilish tartiblari va ko'rsatmalarini ishlab chiqadi va tegishli tartibda ularni yuqori sog'liqni saqlash organlariga o'rganish va tasdiqlash uchun yuboradi;
- bemor bolalarni davolashda maslaxat berish uchun viloyat bolalar markazi va boshqa muassasalarning , jumladan viloyatda joylashgan ilmiy tekshirish va tibbiyot institutlarining yuqori malakali mutaxassis shifokorlarni, jalb etadi;
- Viloyat davolash-profilaktika muassasalari shifokor-pediatrlari uchun sirtki (yozma va telefon orqali) maslaxatlar berish, tumanlarga tez tibbiy yordam markazlari bilan xamkorlikdagi shifokor- mutaxassislarning joylarga chiqib maslaxat berishlarini tashkillashtiradi;
- kasal bolalarga maslaxat poliklinikasida qo'yilgan tashxis, o'tkazilgan davolash va keyingi davolanish to'g'risidagi tavsiflarga va kasalni kuzatish asosida tibbiy hulosalar beradi;
- tuman miqyosida tashxislarning nomutanosib holatlar (kasalni konsultatsiyaga yuborgan davolash-profilaktika muassasasi tomonidan va konsultatsiya poliklinikasi tomonidan aniqlangan tashxislar)ni hamda davolash-profilaktika muassasalari shifokorlari bolalarni maslaxat poliklinikasiga yuborish oldidan ko'rish va davolash jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini taxlil qiladi;
- viloyat tumanlarida davolash-profilaktika muassasalarining shifokorlari bolalarni ko'rish va davolash jarayonidagi yo'l qo'ygan xatolariga va tashxislarining nomutanosiblik xolatlariga asoslanib, har chorakda davolash-diagnostika ishining holati va darajasiga baho berib ma'lumotnoma xatlarini tayyorlaydi.

3.3. Ko'p tarmoqli bolalar markazidagi davolash-profilaktika ishlari bo'yicha bosh shifokor o'rinbosarining vazifalari

1. Viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazidagi davolash-profilaktika ishlari bo'yicha bosh shifokor o'rinbosari bolalar aholisiga davolash-profilaktika ishlarini tashkillashtirishda tajriba va mutaxassislikka ega bo'lgan shifokorlardan tayinlanadi, mutasaddi sog'liqni saqlash organlarining ko'rsatmalariga va viloyat bolalar markazi bosh shifokorining takdimnomasiga ko'ra tasdiqlanadi, ishdan ozod qilinadi.
2. Viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazidagi davolash-profilaktika ishlari bo'yicha bosh shifokor o'rinbosari bevosita viloyat bolalar markazi bosh shifokoriga bo'ysunadi .
3. Viloyat ko'p tarmoqli bolalar markazidagi davolash-profilaktika ishlari

bo'yicha bosh shifokor o'rinbosari quyidagi ishlarni:

- viloyat bolalar markazi nizomiga asosan maslaxat poliklinika va statsionar ishlarini tashkillashtiradi, sog'liqni saqlash organlarining buyruq va yuriqnomalarini, xarakatdagi qonunchilikni hamda yuqori organlarning buyruq va ko'rsatmalarini qo'llaydi.

4. Zamonaviy tibbiy ilm va texnikaga asoslanib, bolalar aholisiga malakali maslaxat va statsionar yordamni ko'rsatishni to'liq ta'minlaydigan tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

5. Viloyat shahar va qishloq tibbiy muassasalarida bolalarga ambulator-poliklinik va statsionar xizmatini ko'rsatish viloyat bolalar markazining tashkiliy-uslubiy bo'lim bilan xamkorlikda o'rganishni tashkillashtiradi;

6. Viloyat bolalar markazlarida kasallarni maslaxat poliklinikalari, statsionarlarning boshka bo'limlari, xonalari va laboratoriyalaridagi tekshirish va davolanishida qulayliklar yaratadi;

6.1. Dalillarga asoslangan tibbiyotni qo'llagan holda kasal bolalarni davolash va tekshirishda konsultativ poliklinikalar hamda viloyat bolalar markazi ishlarida zamonaviy usullarni qo'llash va o'z vaqtida kiritish;

6.2. Bolalar dispanserizatsiyalarining takomillashuvini ta'minlaydi;

6.3. Viloyat bolalar markazlari ishlarining tashkiliy me'zonlari va usullarini takomillashtirish, viloyat tumanlaridan maslaxat poliklinikalariga yuborilgan kasal bolalarni tekshirish muddatini va statsionardagi davo davomidagi yotoq kunlarini qisqartirish;

7. **Bevosita javobgarlikka ega:**

- maslaxat poliklinikalari va kasalxonalaridagi bolalarni tekshirish, tashhishlash va davolashning sifatiga;

7.1. maslaxat poliklinikasi va statsionarning kuch va mablag'laridan to'g'ri foydalanish asosiy jamg'armaga: (imoratlar, jixozlar, asbob-uskunalar, transport va b.) tibbiy asboblari va tibbiy xodimlarga;

7.2. maslaxat poliklinikalari va statsionar sharoitlaridagi berkitilgan zaxiralarning vaqtida topilishiga va ishlatilishiga, ishchi kuchlarining bemor bolalarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga.

7.3. tibbiy xodimlarni to'g'ri taqsimlash, malaka oshirish va ularga bo'ysunuvchi xodimlarning tarbiyasiga;

7.4. qoidalariga binoan kasallik varaqalari va blanklarini qayd qilish va saqlashni tashkillashtirishga .

8. Viloyat bolalar markazining davolash-profilaktika ishlari bo'yicha o'rinbosari

quydagi huquqlarga ega:

- 8.1. Viloyat bolalar markazlarida o'ziga qarashli bo'lgan xodimlarni boshqarish, ularga poliklinikalarda maslaxat qabullarini va maslaxat ishlarini olib borish bo'yicha buyruqlar, vazifalar berish;
- 8.2. Viloyat tumanlaridan kelgan kasal bolalarni viloyat bolalar markazining qaysi maslaxat poliklinikasiga to'g'ri yuborilishini va qabul hamda tekshirishlarni aniqlash;
- 8.3. Viloyat tumanlaridan maslaxat poliklinikalariga yuborilgan bolalarni zaruriyat tug'ilganida statsionar tekshirishga muxtojligi masalasini hal qilish;
- 8.4. Viloyat bolalar markazining bosh shifokoriga bevosita unga bo'ysinuvchi ishchilarni rag'batlantirish va ichki tartib intizomni buzgan yoki boshqa ishlarni bajargan tibbiy xodimlarga jarimalar solish haqidagi ma'lumotlarni yetkazish.

9. Viloyat bolalar markazining davolash-profilaktika ishlari bo'yicha o'rinbosari quyidagi majburiyatlarga ega:

- 9.1. viloyat bolalar markazlaridagi unga bo'ysinuvchi tibbiy xodimlar, bo'lim, laboratoriya, xonalar boshliqlari bo'lgan mutaxassis –shifokorlarga, doimiy ravishda ularga tegishli qarorlar, qonunlar, vazifalar va o'quv metodik qo'llanmalarni yetkazish;
 - 9.2. kasal bolalarning statsionar va poliklinikalardagi tekshirish va davolash ishlarining o'z vaqtida bajarilishi hamda sifatini doimiy nazorat qilish;
 - 9.3. Maslahat poliklinika, markazning davolash-profilaktika ishlari rejalarini yillik, kvartal va oylik hisobotlarini ishlab chiqishini ta'minlash;
 - 9.4. Markazning davolash-profilaktika faoliyati hakida yillik hisobotni ishlab chiqish va bosh shifokorga o'z vaqtida yetkazish;
 - 9.5. Tuman bolalar markazlaridagi tashkiliy-uslubiy bo'lim bilan birgalikda doimiy ravishda(kvartalda bir martadan kam bo'lmagan xolatda) tuman tibbiy muassasalarning bosh shifokorlariga uslubiy va ma'lumotli xatlarni ishlab chiqish va yuborish.
- Markazga yuborilgan bemor bolalarning tekshirish natijalarini taxlil qilish. (markazga kelishdan oldin shahar va qishloq tibbiy muassasalardagi bo'lgan nomutanosib tashxislar, katta qo'pol xatoliklar va boshqa.)
- 9.6. Markaz xodimlarining ilmiy-amaliy konferentsiyalari va kengashlarini ish natijalarini taxlil qilish maqsadida doimiy ravishda tashkillashtirish hamda kasal bolalarni tekshirish va davolashning yangi usullari bilan tanishtirish;
 - 9.7. Medikamentlar, flyuorografik plenklar va bog'lov materiallarini tejimli ishlatishni nazorat qilish .
 - 9.8. Malakasini muntazam ravishda oshirish .

3.4.Viloyat bolalar tibbiyot markazi statsionar bo'limi boshlig'ining vazifalari

1 Viloyat bolalar tibbiyot markazi statsionar bo'limi boshlig'ining lavozimiga malakali mutaxassis shifokorlardan tayinlanadi. U davolash va tashkiliy ishlarda mutasaddi mutaxassislik bo'yicha tajribaga ega bo'lishi kerak.

2. Bo'lim boshlig'ini ishga tayinlash hamda ishdan chetlashtirish, viloyat bolalar tibbiyot markazi statsionar bo'limi boshligi tomonidan amalga oshiriladi. Lavozimga tayinlanayotgan vaqtda ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lgan shifokorlarga imtiyozlar beriladi.

3.Bo'lim boshlig'i markazning bosh shifokoriga va davolash-profilaktika ishlari bo'yicha bosh shifokor o'rinbosariga bo'ysunadi.

4. Bo'lim boshligi o'z ishida viloyat bolalar markazi haqidagi nizom va boshqa rasmiy ho'jjatlar hamda yuqori turuvchi organlarning farmonlari va qarorlarini qo'llaydi.

5. Bo'lim boshligi bo'lim tibbiy xodimlarining statsionardagi bemor bolalarga ko'rsatadigan tibbiy yordam sifati va madaniyatiga to'liq javobgar hisoblanadi

6. Viloyat bolalar markazi bosh shifokori vazifalariga binoan statsionar bo'limi boshligi quyidagi vazifalarni bajaradi:

6.1. Zamonaviy ilm va amaliyot darajasida kasal bolalarni o'z vaqtida davolash , tekshirishni tashkillashtiradi va ta'minlaydi;

6.2. Statsionar bo'limdagi ordinator shifokorlarning ish faoliyatlarini tashxisning to'g'ri qo'yilganligini, davo to'g'ri buyurilganligini va uning natijaviyligini, kasal bolalarning kasallik tarixlarini to'g'ri olib borilishini doimiy nazorat qiladi;

6.3. Shifokor ordinatorlar va o'rta tibbiy xodimlar bilan birgalikda ertalabki va xaftasiga 2 marta kechki vaqtda yangi tushgan va og'ir kasallarning ko'riklarini amalga oshiradi;

6.4. Diagnostika va davolashdagi barcha qiyinchiliklarni o'z bo'limi vrach ordinatorlari bilan muxokama qiladi, hamda poliklinik va statsionar tashxislarning mos kelmasliklarini , bolalar o'limi holatlari kuzatilganida patologo-anatomik tashxislarning o'zgarishlarini taxlil qilishadi;

6.5. o'z bo'limidagi kasallarni qabul qilish va chiqarish masalalarini hal qiladi, davolovchi shifokorlar bilan birgalikda kasallik tarixlarini tekshiradilar, qo'll qo'yadilar, chiqib ketgan hamda boshqa bo'limga o'tkazilgan bemorlarga epikrizlar yozadi;

6.6. bolalar bilan hospitalizatsiya qilingan onalarga beriladigan kasallik varaqalarini asoslanganliklarini va to'g'ri yozilganligini tekshiradilar;

6.7. Zaruriyat tug'ilganida boshqa mutaxassislarni chaqirgan holda kontsiliumlar bo'lib va o'zlari ham ularda ishtirok etadilar;

6.8. Bo'lim kasallari va bolalar bilan birgalikda gospitalizatsiya qilingan onalariga to'g'ri emizish tartibini, davolovchi parxezlarni, bolalar bilan tarbiya va pedagogik ishlarni, kun tartibini ishlab chiqadi va ta'minlaydi hamda og'ir kasallarning parvarishini individualligini ta'minlash, emizikli go'dak bolalar va og'ir bolalarning parvarishlarini onalarga ruxsat beradilar;

6.9. Shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktikasidagi zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshiradi, agarda bo'limda infeksiyon kasallik aniqlansa:

a) bemorni darhol izolyatsiya qilinadi va vrach epidemiolog bilan xamkorlikda muloqotda bo'lgan bemorlarni tarqatish bo'yicha hamda karantin e'lon qilish bo'yicha masalalarni hal qiladi;

b) karantin e'lon qilinganiga qaramasdan yangi kelgan kasallarni qabul qilish va og'ir kelgan bemor bolalarni gospitalizatsiya qilishdan bosh tortmaslik;

v) Bosh shifokorga yoki uning davolash-profilaktika ishlari bo'yicha o'rinbosariga barcha kasalxona ichki infeksiyalari haqidagi holatlar bo'yicha ma'lumotlarini yetkazadi;

g) kasalxona ichki infeksiyalariga tegishli tezkor xabar kartalarini to'ldirilishini nazorat qiladi, infeksiya tarkalishining barcha ehtimollarini ko'rib chiqadi;

6.10. quyidagi yo'llar orqali barcha bo'lim shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlarning malakalarini oshirish ishlarini muntazam olib boradi:

a) yangi tibbiy adabiyotlardan foydalanish, klinik va patologoanatomik anjumanlarda ishtirok etish yo'llari.

b) alohida tuzilgan jadvalga mos ravishda ketma-ket vrach pediatriklar va UASh ni, tibbiy xodimlarning zamonaviy tajribalarini o'rganish, malaka oshirishga va qaytadan o'qitishga yuborish;

v) o'rta tibbiy xodimlar bilan og'ir kasal bolalarning parvarishi va to'g'ri ovqatlantirish mavzulariga oid darslar olib borish;

6.11. O'z bo'limidagi shifokorlarning ilmiy anjumanlarda tibbiy assotsiatsiyalar vazifalariga binoan bajarilgan hamda ilmiy jurnallarga makolalar sifatida bo'limdagi ishlarni o'zida aks etgan ilmiy-tadqiqod ishlarini vrach ordinatorlarga zimmasi yuklab, bunday xollarda bo'lim boshlig'i maqola va dokladda keltirilgan statistik ma'lumotlar, faktlarning xaqqoniyliklariga javob beradi;

6.12. Bo'lim xodimlari bilan tarbiyaviy ishlarga, kasallarga vijdoniy muloqot hakidagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi;

6.13. Barch favkuloddagi xolatlar va ularga nisbatan qanday choralar ko'rilganligi

haqida bosh shifokorni habardor qiladi (tusatdan o'lim, baxtsiz hodisa va b.);

6.14. Bo'limdagi barcha tibbiy ho'jjatlarni olib borilishi tog'riligini ta'minlaydi.; asosiy sifat ko'rsatkichlarini shaxsan o'zi tekshiradi va taxlil qiladi; bo'lim ishlari haqida belgilangan vaqtlarda hisobotlar tayyorlaydi;

6.15. katta yoshli bolalar, gospitalizatsiya qilingan kichik bolalar va onalar bilan sanitar-oqartuv ishlarini olib boradi, guruh, individual suhbatlarning mavzularini markazning bosh shifokoriga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

6.16. Bo'limda beriladigan zaharli, kuchli ta'sirga ega dorilarning saqlanishi, qayd qilinishi va berilishiga javobgar;

6.17. Bo'limdagi, kasallarning va xonalarning kiyimlarining sanitar-gigiyenik xolatlariga hamda tibbiy xodimlarning shaxsiy gigiyenalariga javob beradi;

6.18. Tashkiliy kengashlarda faol ishtirok etadi, ishchi takliflarini qayd qiladi va ularni ko'rib chiqib tadbik etadilar;

7. Markaz bo'lim boshlig'i quyidagilarga haqli:

7.1. Bo'lim xodimlariga buyruq va vazifalar berish;

7.2. O'zi qaramog'idagi xodimlarni rag'batlantirish yoki o'rnatilgan tartib qoidalarini buzganlarga jarimalar solish;

7.3. Bo'lim xodimlari shifokorlari va o'rta, kichik tibbiy xodimlari ish jadvallarini tasdiqlash;

7.4. Bo'limga xodimlarni tanlashda ishtirok etish.

3.5. Viloyat bolalar tibbiy markazi vrach-ordinatorining vazifalari

Viloyat bolalar tibbiy markazi vrach-ordinatori bosh shifokor tomonidan bo'lim boshligi tavsiyasi bilan tayinlanadi va ishdan ozod etiladi.

1. Ordinator bevosita bo'lim boshligiga bo'ysunadi va barcha ishlarni uning qaramog'i'da bajaradi.

2. Viloyat bolalar markazi ordinatori quyidagi **majburiyatlarga** ega:

3.1. Dalillarga asoslangan tibbiyotni qo'llagan holda zarur diagnostik tadkikodlarni qo'llagan holda davolash usullarini qo'llab kasal bolalarni davolash;

3.2. Bemor bolalarga dorivor davoni buyurish, buyurgan dorilarni va davo muolajalariga javobgar; bo'lim yunalishiga binoan o'zlari mustaqil ravishda maxsus tibbiy tadkikodlar olib boradi va b;

3.3. Xonalardagi kasallarni xamshira bilan birgalikda har kuni teshirishlarda va bo'lim boshligi ko'riklarida qatnashish, o'z kasallari haqida hisobotlar beradi va zaruriyat tug'ilganida boshga mutaxassislar bilan maslaxatlashadi;

- 3.4. Kasallarning ahvollari, davosi, ovqatlanishi va kundaliklarini kasallik tarixlariga ezadilar;
- 3.5. Kasalda kuzatilgan barcha o'zgarishlarni va tashxisni kuya olmaslik xolatlari kuzatilganida bo'lim boshligiga ma'lumotlar yetkazish;
- 3.6. O'rta va kichik tibbiy xodimlarni boshkarish, shifokorlar bergan vazifalarni to'g'ri bajarganliklarini tekshirish va bajarilmaganlik xolatlarida bo'lim boshligiga yetkazish;
- 3.7. Bemor bolalarning ovqatlanish tartiblari hakida bo'lim parxez shifokori bilan maslaxatlashish.;
- 3.8. Spravkalarga kelgan onalar, kasalxonadagi katta bolalar, bolalari bilan birgalikda yotgan ota-onalarga sanitar-oqartuv ishlari bo'yicha mashg'ulotlar olib borish;
- 3.9. Bolalari bilan birgalikda yotgan onalarning ichki tartib qoidalarini buzmasliklarini nazorat qilish;
- 3.10. Ketish oldidan bo'lim boshlig'iga, ishda yoq bo'lgan xolatlarida esa navbatchi shifokorga yozma ravishda og'ir bemorlarning ahvoli va ularga o'tkazilgan hamda o'tkazilishi kerak bo'lgan davo muolajalari va tadbirlarini qoldirish;
- 3.11. O'rnatilgan jadval bo'yicha tungi navbatchiliklarda ishtirok etish ;
- 3.12. Bo'lim boshlig'iga uning hulosasiga binoan boshqa bo'limga o'tkazilishi yoki kasalxonadan chiqib ketishi kerak bo'lgan bolalarni taqdim etish;
- 3.13. O'rnatilgan tartiblarga mos ravishda kasallarni chiqarish va boshqa bo'limlarga o'tkazish.

Ota- onalar kasal bolani uylariga o'z qaramog'lariga olib ketish vaqtlarida ota-onalarni bo'lishi mumkin bo'lgan xolatlar yuzasidan ogoxlantirish va albatta bo'lim boshlig'i yoki bosh shifokorga ma'lumot berish .Bolani kasalxonadan chiqarishda kasallik tarixida bola ota-onasining qaramog'iga o'zi xohishi bilan olib ketilganligini qayd qilishlari lozim;

- 3.14. Bolani kasalxonadan chiqqanligi haqidagi xabarni bolalar muassasasiga o'z vaqtida yetkazadi;
- 3.15. statsionar o'rnatgan ichki tartibga binoan kunlar va soatlar bo'yicha tashrif buyuruvchilarni qabul qilish va ularga og'zaki ravishda bolalar haqida ma'lumotlar berish; agarda bolaning ahvoli yomonlashgan holatlarida albatta ota-onalariga xabar berish .
- 3.16. Doimiy ravishda o'zining nazariy bilimlari va shifokorlik tajribasini oshirib turish, shifokorlar anjumanlari ishlarida ishtirok etish, o'lgan kasallarning patalogoanatomik yorishlarida ishtirok etish.

3.17. Bo'limning o'rta va kichik tibbiy xodimlarining malakalarini oshirish ishlari bo'yicha ishlar olib borish, har kuni ulardan tartibga rioya qilishni talab qilish, kasal bolalarga , ota-onalarga nisbatan yaxshi muomalada bo'lish, medikamentlar va boshqa asbob-anjomlarga ehtiyojkorona foydalanishni nazorat qilish

3.15. Bo'lim boshlig'iga yoki bosh shifokorga favquloddagi vaziyatlar, ish tartibi buzilganligi hamda kasal bolalar va ularning ota-onalari tomonidan ichki tartib intizomni buzishlari haqida ma'lumotlarni yetkazish.

4. SHAXAR TIBBIY BIRLASHMANING YOKI OILAVIY POLIKLINIKANING BOLALAR BO'LIMI

4.1. Shaxar tibbiy birlashmaning (bolalar poliklinika bo'limining) ish faoliyati haqidagi umumiy ma'lumotlar

Bolalarning salomatliklarini saqlash bo'yicha bizning mamlakatimizda birinchi o'rinni ambulator-poliklinik xizmat egallaydi.

Bolalar poliklinikasi bolalar tibbiy birlashmaning yoki oilaviy poliklinikaning tuzilish birligi hisoblanadi.

Tumandagi bolalar shahar poliklinikasi 15 yoshgacha bo'lgan (14 yosh 11 oy 29 kunlik) bolalarga davolash profilaktik yordamni ko'rsatadi. Tibbiy yordamni ko'rsatish uy sharoitida, poliklinikada, bog'chalarda, maktablarda amalga oshiriladi. Bolalar poliklinikasining joylashish hududini sog'liqni saqlash organlari belgilaydi va nazorat qiladi.

Bolalar poliklinikalari bo'limlarining kategoriyalari bolalar aholisining soniga bog'liq.

Ambulator poliklinik muassasalarning hisob ko'rsatkichi ulardagi shifokorlar lavozimlari soniga bog'liq.

« Shifokor lavozimi» tushunchasida biz shifokorning ma'lum belgilangan ish xajmini tushunamiz, u har bir soxada alohida hisoblanilib, «shifokorlik kasbining vazifasi» sifatida hisoblaniladi.

Shifokorlik kasbining vazifasiga- bir kalendar yilda ko'rilishi mumkin bo'lgan poliklinikalardagi rejayiy qabullar, profilaktik ko'riklar va uylarga chakiruvlardagi kuriklarni amalga oshirish kiradi.

Shifokorlik kasbining vazifasi uch quyidagi kursatkichlar bilan ta'riflanadi:

- ajratilgan kun, soatlarda poliklinikalardagi profilaktik kuriklardagi 1 soat mobaynida kuriladigan kasallar soni va uylardagi ko'riklarda 1 soat mobaynida ko'riladigan

kasallarning soni bilan belgilanadi

Masalan, hududiy pediater uchun ish vaqtida 1 soatga 5 kasal ko'rish, uyda- 2 kasal ko'rish, bo'ladigan profilaktik ko'riklarda esa 7 kasal ko'rigi amalga oshiriladi.

-ikkinchi element bo'lib soatlar soni hisoblanib ish jadvaliga bog'lik bo'ladi. Hududiy shifokor-pediatrlarning ish kuni 5,5 soat hisoblanadi, poliklinikada 3 soat, hududda 2 soat ho'jjatlarni to'ldirish, majlislar va konferentsiyalarda ishtirok etish uchun 0,5 soat:

- uchinchi element – yil davomidagi ish kunlari soni. Hududiy vrach- pediatrlarda 278 kunni tashkil etadi (365 kun 24 kun ta'til ayirilganida , 3 kun qo'shimcha dam olish kunlari, 59 kun dam olish kunlari va bayramlarga to'g'ri keladi) Mutaxassis shifokorlarda yozgi dam olish kunlari 18 ga teng, shu sababli yil davomidagi ish kunlari 285 ni tashkil qiladi.

Shifokor faoliyatining vazifasi hududiy pediater ish faoliyati quyidagicha hisoblanadi:

A) ambulator qabulda: $5 \times 3 \times 278 = 4170$;

B) uydagi yordam bo'yicha: $2 \times 2,0 \times 278 = 1012$;

Bir yilda yig'indisi 5182 nafar bolalarga xizmat ko'rsatadi .

Aholining ambulator-poliklinik shifokorlarga talab kuyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$Sh = \frac{D \times A}{F}$

qabullar soni;

Sh –Shifokor lavozimi;

D –1 kishi aholiga yiliga to'g'ri keladigan

A –aholi soni;

F – Shifokorlar faoliyatining vazifasi.

Misol tarikasida ambulator- poliklinika sharoitida pediater shifokorlarga bulgan extiyojni xisoblash mumkin, bunda kishi aholisining 1 boshiga 2 qabulni mos qilib olamiz, aholining umumiy soni 100 000 , shifokor lavozimi vazifasi 5182.

$Sh = \frac{2,0 \times 100\,000}{5182} = 38$ pediater- shiforlar lavozimi

Poliklinikaning bolalar bo'limi tuzilishi quyidagi bo'limlarga ega:

1. alohida eshikli filtr va boksli izolyatorlar;
- registratura;
2. pediater xonalari va boshka shifokorlar xonalari;
3. bolalar bilan profilaktik ishlarni olib borish xonalari(sog'lom bola xonasi, emlash xonasi);
4. davolovchi tiklanish bo'limi;

5.davolash diagnostika xonalari: laborotoriya, rentgenologik, fizioterapevtik, davolovchi jismoniy tarbiya xonasi, massaj xonasi, muolaja xonasi, emlash xonasi va b. ;

6. maktab-maktabgacha bo'lim

7. huquqiy xona

8. garderob va boshka yordamchi xonalar, kutishga muljallangan xollar;

9.administrativ-ho'jalik bo'limi (apteka, boshqarma xonalari va b.) Poliklinikalarda kunduzgi statsionarlar mavjud.

Bolalar poliklinikalaridagi shtatlarning soni meyorlarga asosan bo'linadi, bularga asosan bolalarga poliklinikalarda qabulni, ularga ko'rsatiladigan uydagi, bog'chalardagi, maktablardagi tibbiy yordam tashkillashtiriladi va boshka ishlarni amalga oshirish yuzasidan ambulator-poliklinik xizmat bo'yicha 15 yoshgacha bo'lgan har 10 000 bolalar soniga quyidagicha taqsimlanadilar:

Hududiy pediater – 12,5 yoki 800 bola boshiga 1ta pediatrik.

Bolalar muassasalari, bog'cha, yasli, maktablardagi shifokorlar shtatlari quyidagicha taksimlanadilar:

1 pediater – 180-200 bog'cha yasli bolalar soniga ya'ni 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga ;

- 600 nafar maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar 3-yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bog'cha bolalari(yasli bog'chalardagi);

- 2000 maktab bolalari.

Hududiy pediatrlarga mavjud bo'lgan meyorlarga ko'ra hududiy pediatrga 800 nafar bola to'g'ri keladi; o'rta tibbiy xodimlarda 1,5 xamshira 1 pediater shtatiga to'g'ri keladi. Xozir poliklinikalarda UASh lari ishlashini hisobga olgan xolda har bir hududiy shifokorga 15000 aholi soni to'g'ri keladi.

Agar hududiy pediatrlar va maktab hamda bog'cha pediatrlari soni 6,5-9 gacha bo'lganida pediatrik bo'limi boshlig'iga 0,5 lavozimi beriladi va shifokor 50% ishini bajaradi, agarda pediatrlarning umumiy soni 9 dan ohsa 1 bo'lim boshlig'iga 1 stavka berilib, davolash ishlaridan ozod etiladi.

Bolalar poliklinik bo'limlarining ish faoliyatlarining asosiy ish uslublaridan biri bo'lib dispanser usuli hisoblanadi, bu usul bolalarning sog'liqlarini saqlashga, chiniqtirishga , to'g'ri psixik, fizik, rivojlanishini ta'minlashga, kasalliklarini erta aniqlash, davolash va oldini olishga qaratiladi.

Bolalar poliklinikalaring asosiy yunalishi bu –sog'lom bola rivojlanishi va tarbiyalanishi uchun sharoitlarni ta'minlash: kasalliklarning profilaktikalarini olib borish, kasal bolalarga davolovchi yordam ko'rsatish, rivojlanishlarida va sog'liqlarida

nuqsonliklarga ega bolalar bilan davolash-profilaktik yordamni o'tkazish.

Shahar poliklinikalaridagi bolalar bo'limlaridagi tibbiy xodimlar ishlarining tavsiloti quyidagicha ta'riflanadi..

1. Profilaktik tadbirlar kompleksini tashkillashtirish va uyushtirish;

- 1.1. sog'lom bolalarni dinamik tibbiy kuzatish ;
- 1.2. profilaktik kuriklar va dispanserizatsiya ;
- 1.3. profilaktik emlashlar emlash(kalendariga ko'ra);
- 1.4. soglom turmush tarziga bag'ishlangan mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha ota onalar bilan (ma'ruza, muxokamalar, anjumanlar)o'tkazish, maktab bolalarini chiniqtiruvchi muolajalarga (jismoniy tarbiya i sportga) o'rgatish;
- 1.5. to'g'ri ovqatlantirishni tashkillashtirish va b.

2. Uyda va poliklinikalardagi davolash maslaxatli yordamni, jumladan kasal bolalarni malakali tibbiy davolanishga bolalar statsionarlariga, , Sog'liqlarini tiklash uchun oromgohlarga, iqtisoslashtirilgan bog'cha yasilarga, chiniqtiruvchi oromgoxlarga va b. yuborish;

3. Maktabgacha ta'lim muassasalarda va maktablarda davolash-profilaktik yordam ishlari;

4. Epidemiyaga qarshi chora tadbirlar (SES lar bilan birgalikda);

5. Bolalarning huquqlarini himoyalash ;

6. Shifokorlar , o'rta tibbiy xodimlarning malakalarini oshirish bo'yicha o'quv kurslariga yuborish ishlarni amalga oshirish;

7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi o'rnatgan tartibda qaydlarni olib borish va hisobotlarni etkazish bo'yicha .

Poliklinikaning bolalar bo'limi quyidagi aloqalarni amalga oshiradi:

- Qizil Yarim Oy jamiyati, tuman Xalq ta'limi bo'limi, tuman pediatri bilan;
- hududiy sanitar epidemiologik markazlar bilan ;
- Salomatlik va statistika makazlari bilan,
- ayollar maslaxatxonolari va tug'ruqxonalar bilan,
- statsionar, dispanserlar bilan,
- kattalar uchun muljallangan poliklinikalardagi(oilaviy poliklinikalarda) o'smirlar xonalari bilan;
- maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaviy poliklinikalar bilan;
- bolaning yashash manzili bo'yicha sanitar faollar va umummaxalliy muassasalar bilan;
- bolalarning ota-onalari ish joylaribilan va oilalari bilan.

4.2. Shaxar poliklinikasining bolalar bulimi mudirining (markaz yoki oilaviy poliklinika)

- Bolalar poliklinikasi bO'limining yoki oilaviy poliklinikaga, shifoxonaning bolalar bO'limiga bosh shifokori lavozimiga ish tajribasi va tashkillashtirish maxoratiga ega bulgan pediater yoki UASH ni tayinlashadi;
- BO'lim boshlig'ini ishga olish va ishdan chetlatishshni bosh shifokor o'zi bo'ysinuvchi yuqorigi Sog'liqni Saqlash tashkiloti maslaxati yoki xokimiyat maslaxati bilan birgalikda amalga oshiradi;
- bo'lim boshligi poliklinikaning bolalar bulimi ishini boshkaradi va maxalliy Sog'liqni Saqlash bulimiga bevosita buysunadi;
- bo'lim boshlig'i poliklinika bulimlari ish faoliyatiga va uning sifati xamda bolalarning davolash-profilaktika yordamiga xolis ravishda tulik javobgar xisoblanadi;

Bo'lim boshlig'i poliklinikaga yuklatilgan vazifalarga monand bajarishi kerak bo'ladigan vazifalari;

- bolalarga poliklinikada, uyda va maktabgacha muassasalarda tibbiy davolash va profilaktik yordamni tashkillashtirish;
- dalillarga asoslangan tibbiyot isbotlagan tibbiy yordamning yangi usullarini, diagnostika, davolash, profilaktikaning yangi chora tadbirlarini qo'llash va poliklinika ishiga tadbik qilish;
- bo'lim ishchilarining, xonalarning ish ratsional grafiklarini tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish ;
- Poliklinikaning ish faoliyati davomida ayollar maslahatxonasi, tug'ruqxonalar,boshqa davolash-profilaktika muassasalari va sanitar-kurort muassasalari bilan xamkorligini ta'minlab berish .

Bo'lim boshligi quyidagilarga javobgar:

- Davolash- profilaktika ishlarining hozirgi fan va texnikaning rivojlangan talablariga monand sifatiga;
- bosh shifokor bilan maslaxatlashgan holda tibbiy va boshqa xodimlarni o'z vaqtida to'liq shtatlar bo'yicha rasmiylashtirish va lavozimlariga joylashtirish;
- berilgan bo'limning ish faoliyatiga ilmiy yutuklarni kiritish;
- tibbiy xodimlarning malakalarini oshirish;
- aholi bilan birgalikda poliklinikaning bolalar bo'limi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan masalalarni hal qilish;
- xodimlarning tegishli qarorlar, qonunlar, qoidalar, metodik qo'llanmalar bilan

tanishtirishni ta'minlaydi;

- yuqori turuvchi organlarga statistik va b. xisobotlarni to'g'riligini tekshiradi va o'z vaqtida bera olishini ta'minlaydi.

- bo'lim boshligi bo'lim xodimlari ustidan tushgan arizalar, shikoyatlar va takliflarni ko'rib chiqadi va bosh shifokor bilan maslaxatlashgan holda tegishli chora tadbirlar ko'radi. Bo'lim boshlig'i markazning bosh shifokori oldida va zaruriyat tug'ilganida Sog'liqni Saqlash boshqarmasi oldida hisobotlar beradi hamda aholiga yiliga ikki martadan kam bo'lmagan hisobda hisobotlar topshiradi.

4.3. Poliklinika Pediatriya bo'limini mudirining funktsional majburiyatlari

Asosiy vazifalar bu bo'lim va umumiy bo'limlar shifokorlarini profilaktik-davolash va umumiy sanitariya ishlarini nazorat qilish va to'g'ridan to'g'ri raxbarlantirish.

- poliklinikada va xonadonda bemorlarga maslaxat o'tkazish;
- davolanishga tavsiyalar berish, statsionar davolanishga muxtoj bo'lgan bolalarni o'z vaqtida statsionarga yotkazishni ta'minlash;
- maktabgacha bo'lgan idoralarga va maktabga qatnaydigan bolalarning rejali dispanserizatsiyasini uyushtirish, yil davomida tibbiy ko'riklar natijalarini baholash;
- uning asosiy ishlaridan biri bo'limning ishning sifat ko'rsatgichlarini tahlil qilish, va ularning natijalarini bo'lim majmuasi bilan ko'rib chiqish.

Pediatriya bo'limining mudiri ishtirok etadi:

- oylik ish rejalarini bajarish nazoratida pediatrlar (poliklinikada, va shunday maktabgacha bo'lgan idoralarda va maktablarda ishlaydigan) yoki pediatriyaga tegishli umumiy profildagi shifokorlar ish rejasini va ish jadvalini tuzish;
- yuqori turuvchi organlarning metodik-instruktiv kursatmalarini, buyruqlarini, majburiyatlarni, bo'lim xodimlariga etkazish va ularning o'z vaqtida bajarishni ta'minlash;
- qayta kirgan shifokorlar va tibbiy xamshiralar instruktajida, administrativ yig'ilishlarda, o'tkaziladigan pediatrlar, UASh shifokorlar va o'rta tibbiy xodimlarni malaka oshirish tadbirlarida;

Pediatriya bo'limi mudiri majmuada olib borilgan ishlarda mehnatga chin dildan qarash tarbiyasini olib borilishiga, bolalarga va ota-onalarga diqqat va e'tibor bilan qarashga javobgar bo'ladi.

4.4. Uchastka pediatri, pediatri funktsional majburiyatlari.

Uchastka pediatri va UASH asosiy masalasi bo'lib kasalliklarni va hamma yoshda bo'lgan bolalar o'limini keyinchalik kamayishi, keng uyushtirish kompleksi yo'li bilan spetsifik va nospetsifik profilaktik tadbirlarini, bolalarni optimal fiziologik va psixo-nevrologik rivojlanishi ta'minlash.

UASH shifokori yoki uchastka pediatri bu faoliyatlarida majbur :

- ayollar maslaxatxonasi bilan doimo aloqada bo'lish, xomiladorlarni nazoratida qabulni ta'minlash, ayniqsa (xavf) guruhidan bo'lganlarni; xomiladorlarni tug'uruqdan oldingi oxirgi oylarda xonadonga qatnab ko'riklarini o'tkazish, shuningdek tug'uruqxonadan chiqqan yangi tug'ilgan chaqaloqlarni 3 kun davomida ko'rish, tibbiy xamshirani xonadonga qatnab yangi tug'ilgan chaqaloqlarni ko'rishini nazorat qilish;
- poliklinikada bolalarni qabul qilish, ularga rejim, ratsional oziqlanish, raxitning spetsifik va nospetsifik profilaktikasini belgilash, bolalarni fizik va psixonevrologik rivojlanishini baholash;
- uslubiy qo'llanmalariga asosan bolalarga profilaktik nazorat olib borish, ularni boshqa mutaxassislar maslaxatiga va zarur bo'lgan laborator tekshiruvlarga yuborish;
- kalendar bo'yicha profilaktik emlash rejasini tuzish, o'z vaqtida va asosli emlashni tibbiy qoldirilish sababini rasmiylashtirish;
- tasdiqlangan holatga asosan, bolalarni dinamik tibbiy tekshirishdan o'tkazish, boshqa shifokor-mutaxassislar tomonidan dispanser nazoratiga olingan bemorlarni kuzatish va dispanserizatsiyani foydaligini tahlillash;
- maktabgacha bo'lgan idoralarga va maktablarga qatnashdan ilgari tekshiruvlar o'tkazish, zarur bo'lgan profilaktika va sog'lomlantirishni olib borish.
- Chaqiruv bo'lgan kuni xonadonda bolalarni borib ko'rish, ularga zarur bo'lgan tibbiy yordam ko'rsatish, ko'rsatmalarga qarab fizioterapiya davolar buyurish; davolanish fizkulturasi, bemor bolaga sog'aygunicha, gosptalizatsiyagacha yoki poliklinikaga qatnash ruxsati berilguncha nazorat qilish, bir yoshgacha bolalarni har oy nazorat qilish;
- Uchastkada og'ir kasal bo'lgan, kasalxonaga qandaydir sabablarga ko'ra yotmagan bemorni to'g'risida poliklinika rahbariyatiga axborot berish;
- SESga tasdiqlangan holda infeksiyon kasallik yoki unga shubxa bo'lgan xolatlarni habar qilish, infeksiyon kasallikni tarqalmasligi uchun kompleks

profilaktik ishlar olib borish;

- Bolani davolanish uchun statsionarga yuborish, zarur bo'lgan holatlarda hamma tezkor gospitalizatsiya usulrini qo'llash;
- Sanator davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarni nazoratga qo'yish va ajratish;
- uchastkada bolalarni sog'lig'ini ahvolini, umumiy va infeksiyon kasalliklarni, o'lim sabablarini, dinamikada sistematik analizini olib borish, buni asosida keyinchalik ish rejasi tuzish;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash Vazirligining tasdiqlagan tibbiy ho'jjatlarini olib borish;
- Doimo o'z malakasini oshirish, davolash va diagnostika yangi metodlarini qo'llash, tajribani oshirish;
- Bilimning saviyasini oshirish va uchastka tibbiy xamishirasini olib borgan ishlarini, saviyasini oshirishini nazorat qilish;
- Sog'lom bola rivojlanish masalasini, uning gigienik tarbiyasini, rejali sanitar-oydinlashtirish ishlarini olib borish, o'z uchastkasida aholidan sanitar aktini tuzish va ularni profilaktik ishlar olib borishni yo'lga qo'yish.
- Bolani oilasi bilan ish olib borish.

4.5 Maktabgacha bo'lgan bolalar idoralari va maktablarda shifokor pediatri funktsional majburiyatlari.

Maktabgacha bo'lgan bolalar idorasida vrach ishini ilovasi:

Maktabgacha bo'lgan bolalar idorasi shifokorlari bolalar poliklinika bo'limlarini raxbariyatiga bo'y sinadi va bolalar soniga qarab 2-3 maktabgacha bo'lgan bolalar idorasiga xizmat ko'rsatadilar. Maktabgacha bo'lgan bolalar shifokori, bu idoraga qatnaydigan bolalarni sog'lig'iga javob beradigan shaxs bo'ladi.

DDU shifokorining funktsional majburiyatlari:

- shifokor fiziologiya, psixologiya va maktabgacha bo'lgan bolalar patologiyasi tumanida o'z saviyasini tizimli oshirish lozim, bolalar tarbiyasi dasturini hamda maktabgacha pedagogika asoslarini bilish shart.
- Shifokor yasli mudiri, pedagog va katta xamshira bilan birgalikda DDUda ishlaydigan xodimlarni tibbiy bilimiga javob beradi va ularni saviyasini oshirishda aktiv ishtirok etadi;
- Shifokor butun kompleks profilaktika tadbir choralarini tashqil qiladi va vaqti-vaqti bilan sanitar-epidemiya qarshi rejimni nazorat qiladi, uqalash

o'tqazishni vositasini, fotariy ishini, gigiyena va sog'liqni mustaxkamlash chora tadbirlarini nazorat qiladi;

- Vaqtincha tibbiy emlashni kechiktirish va organizmi allergiyaga moyilli bolalarni immunizatsiyaga tayyorlash;

- Bolalarni yoshi va sog'lig'ini holatiga qarab shifokor 10- kunlik individual taomnoma tuzadi va nazorat qiladi, umumiy ovqatlanish muassasini tozaligini va ovqatni tayyorlash texnologiyasini nazorat qiladi. Tayyor maxsulotni sifatini ob'ektiv baholaydi, brakeraj daftarida belgi qo'yadi;

- Shifokor hamma qayta kelgan va kasallikdan keyin qaytib kelgan bolalarni, muassasada 2- kundan ko'p bo'lmagan vaqtda ko'rikdan o'tkazadi;

- DDUga katnaydigan bolalarni tarbiyachilarni ishlatib, tibbiy xamshiralarni kundalik ko'rigini tashkil qiladi;

- Shifokor o'z vaqtida o'tkir kasallik bemorlarni, shunday bolalarni o'tgan formali kasalliklarini, surunkali patologik xolatlarini (anemiya, raxit, gipotrofiya, eksudativ diatez va boshkalar) aniqlaydi, va poliklinika hamda yordamchi xonalarni mutaxassislar maslaxatli yordamini ishlatib, kompleks patogenetik terapiya bilan ta'minlaydi.

Maktablarda shifokorni funktsional majburiyatlari:

Umumiy-ta'lim berish maktablarda o'quvchilarga tibbiy ta'minlanish shifokor-pediatrlar va UASH, va kuchini yo'qotmagan shtat normativli urta tibbiy xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Maktab tibbiy xodimlarini asosiy vazifasi o'qivchilarni sog'lig'ini saqlashga qaratilgan profilaktika tashqil qilish, epidemiyaga qarshi tozalik va davolash-sog'lomlashtirish tadbir choralarini ko'rish.

Shifokor majbur:

- bolalar poliklinikasi (bo'limi) yoki maktabgacha bo'lgan bolalar idorasi va maktab poliklinika bo'limi mudirini tomonidan tasdiqlangan, o'tayotgan yilni ish rejasiga ega bo'lish kerak, bu maktab pedagogik maslaxatiga ma'lum qilingan bo'lishi lozim;

- o'z vaqtida metodik tavsiyalariga munosib bo'lgan tibbiy ko'riklar tashkil qilish va o'tkazish, bolalar aholisini dispanserizatsiyadan o'tkazish, har bir o'quvchining sog'lig'ini holatidan kompleks hulosa berish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish uchun tibbiy guruhini aniqlash va zarur bo'lganda davolash-sog'lomlashtirish chora tadbirlarini belgilash;

- o'quvchilarni chuqur tekshiruvlar natijalarini analizi o'tkazish, ularni sog'lig'ini mustaxkamlash uchun olingan ma'lumotlar asosida umumiy reja tuzish;
- jismoniy tarbiya darslariga va sport sektsiyalarida mashg'ulotlarga qatnashib, maktabda jismoniy tarbiya berishni nazoratga olish, o'quv ishlarini rejimi, dam olish va o'quvchilarni ovqatlanishiga, ayniqsa uzaytirilgan kunli guruh o'quvchilariga ahamiyat berish, epidemiyaga qarshi chora tadbirlar o'tkazish, bolalarni profilaktik ko'rikdan va o'smirlarni profilaktik emlashlar oldidan ko'rigini o'tkazish.
- o'quvchilarni orientatsiyasi va professional maslaxati bo'yicha, ularni sog'lig'ini holatini inobatga olib, pedagog xodimlari bilan birgalikda ish olib borish;
- bo'lib chiqish va o'tkazish imtixonlardan ozod bo'lishga muxtoj bo'lgan o'quvchilarni aniqlash, ularga tayinlangan materiallarni mansub bo'lgan poliklinika kommiyasi ixtiyoriga topshirish;
- maktabda ambulator qabul o'tkazish va tibbiy yordam ko'rsatish;
- maktab xodimlari, ota-onalar va o'quvchilar o'rtalarida tozalik ishlarini oydinlashtirish;
- o'quvchilar sog'lig'ini ahvoli to'g'risida ma'lumotlarni analiz natijalarini, ularni kasalliklarini va o'quvchilarni sog'lig'ini mustaxkamlantirishga qaratilgan chora tadbirlarini, poliklinika (bolalar bo'limi mudiri) bosh shifokori va pedagogik maslaxat a'zolariga ma'lum qilish;

4.6. Oilaviy poliklinika faoliyati:

Shahar poliklinikalarini faoliyati bekorligini zarurligini inobatga olib, sog'liqni saqlash birlamchi zvenosining shahar eksperimental muassasalari normativ va xolatlar yangi loyixalari ishlab chiqilgan.

28 sentyabr 2005 yilda "O'zbekiston Respublikasini Sog'liqni Saqlash muassasalar boshqarmasi va mablag' bilan ta'minlash sistemasini kelajakda islox qilish choralari to'g'risida" Vazirlik Kabineti №217 qaroriga asosan, va sog'liqni saqlash sferasida kelajakda chuqur reforma qilish muljalida, mablag'lash yangi mexanizmini tarqatilishi va (BTSYo) birinchi tibbiy yordam shahar muassasalarida eksperiment sifatida uni joriy qilish, shunday shahar aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish yangi printsiplarini joriy qilish. Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan ma'lum qadam tashlangan.

Ayrim shahar poliklinikalarini yangi maglag' bilan ta'minlanish etapiga o'tishi

unumli va o'z vaqtida amalga oshirish uchun, umumiy praktika shifokori printsipli bo'yicha tibbiy yordam tashkil qilish, sog'liqni saqlash birlamchi zvenosining malakali mutaxassislarni tayyorlash va talablarni birxillashtirish organizatsiyasiga va ularni ishlarini baholashga Vazirlikning 29 dekabr 2007 yildagi № 594 maxsus qarori chiqqan. Bunda oyilaviy poliklinikalarda umumiy praktika shifokoriga alohida diqqat ajratilgan.

Aholini sog'lig'ini yaxshilashiga qaratilgan hamma zarur chora tadbirlar o'tkazilishi tufayli BTSYO namunali ustav ishlab chiqarilgan, u bilan BTSYOning muljallari va masalalari maxsus xolatlar aniqlangan:

BESYO unga biriktirilgan aholiga sifatli tibbiy-sanitariya yordam ko'rsatish muljali bilan tashkil qilinadi. Asosiy vazifani amalga oshirish uchun BTSYO xodimlari quyidagi masalalarni hal etadi:

1. Biriktirilgan aholiga, ayniqsa tez uchrab turadigan kasalliklarni profilaktikasi va davolashi uchun, ayrim bemorlarga ko'rsatilganday, butun oilaga ham individual tibbiy xizmat ko'rsatish.
2. Tez tez uchrab turadigan kasalliklarning davomidagi kechadigan og'ir xolatlarda va notipik variantlarda, bemorlarni ko'rsatgichlariga qarab, o'z vaqtida tibbiy maslaxat, maxsus tibbiy muaasasalarga yo'llanma berish va gospitalizatsiya qilish.
3. Ixtiyorda bo'lgan va standartli ta'minlar yordamida aholiga gospitalizatsiyagacha tezkor tibbiy tez yordam ko'rsatish.
4. Xizmat ko'rsatilayotgan aholida kasallik, travmatizm, nogironlik, va o'limning kamaytirish maqsadida profilaktik chora tadbirlar o'tkazilish.
5. Aholini sog'lom hayot kechirish, shuningdek tug'ri oziqlanish, alkogol ist'emol qilish bilan kurashish, chekish va boshqa zararli odatlarni yo'qotish propagandasini, tozalik gigiyenik tarbiyasini tashqil qilib chora tadbirlar o'tkazish.
6. Xomilador va tug'ruqdan keyingi xolatdagi ayollarga dispanser nazoratdan o'tkazish va tashqil qilish, shuningdek ko'rik, diagnostik tekshiruv, dinamik nazoratda sog'liqni holatini baholash, xomiladorlikni va tug'ruqdan keyingi holatlarda asoratlarini o'z vaqtida aniqlash; xomiladorlikni va tug'ruqdan kechingi holat asoratli kechilganda, xomilador va tug'ruqdan keyingi ayollarni zarur bo'lgan holatlarda mutaxassis-shifokorlar maslaxatiga yuborish; gospitalizatsiyaga muxtoj bo'lgan xomilador ayollar va tug'ruqdan keyingi ayollarni aniqlash; xomilani 1-2 oyligida rivojlanish poroklarini aniqlash maqsadida, xomilador ayollarni o'z vaqtida skrining tekshiruvidan o'tkazish;

oldindan har bir xomiladorning sog'lig'ini xolatiga qarab tavsiya etilgan yordamchi tug'ruqxona muassasasini darajasini ratsional aniqlash; xomilador va tug'ruqdan keyingi ayollarni patronaji; Tug'ruqga yaqin xomiladorni va uni oila a'zolarini psixoprofilaktik va jismoniy tayyorlash; tug'ruqdan keyingi xolati fiziologik kechishida tug'gan ayollarni dispanser xisobdan chiqarish.

7. Kompleksli epidemiyaga qarshi tozalik chora tadbirlarni tashqil qilish va o'tkazish, shuningdek: profilaktik emlash, biriktirilgan xonadonlarning va atrof territoriyasini tozalik holatini umumiy nazorat qilish, infeksiyon kasalliklar o'choqlarida kuzatish chora tadbirlar o'tkazish, biriktirilgan aholini xafli epidemiologik holatlari to'g'risida ogohlantirish.
8. Biriktirilgan aholini sog'lom hayot kechirishga o'rganishni uyg'otish chora tadbirlarini tashqil qilib o'tkazish, shuningdek ulg'aymoq avlodni sog'lomlashtirish; ona va bolani sog'lig'ini himoyalash; oilani ratsional rejalashtirish; oilaviy hayotni ijtimoiy va boshqa aspektlarida etika, psixologiya, gigiyenasiga; tug'ruqga va tug'ruqdan keyingi holatlarda (ante va perinatal kechishi); ko'krak bilan emizishiga; ratsional oziqlanishiga; tozalik va gigiyena asoslariga; tug'ma anomaliyalarni va nasliy kasalliklarni kamaytirishga, immunizatsiyaga;
9. Ijtimoiy yordam xodimlari bilan birgalikda yolg'iz, qariyalarga, nogironlarga va surunkali patologiyali bemorlarga patronaj tashqil qilib, tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish
10. Tartibli aholini bolalari va kattalariga, maktabgacha bolalar muassasasi, maktab kollejlari, OO'YUga, bolalar uyiga, internatlarga, muassasalarga tibbiy xizmat ko'rsatish.
11. Bemorlarni surunkali patologiyalarini erta aniqlash maqsadida muljalli tibbiy va profilaktik ko'riklarini, kontingentlar bo'yicha umumiy dispanserizatsiyasi, birinchi o'rinda bolalar va o'smirlar uchun tashkil qilish va o'tqazish;
12. Ijtimoiy-ma'noli kasalliklarga qarshi davolash-profilaktik chora tadbirlar o'tkazish, shu jumladan tuberkulyoz, teri-tanosil kasalliklari, xavfli o'smalar, OITS va OIV infeksiyalari.
13. Aholini kasalliklarini, mehnat qobiliyatini doimiy va vaqtinchalik yo'qolishiga olib kelgan kasalliklarni sabablarini o'rganish, kasallanish va travmatizmning kamayishiga olib boriladigan chora tadbirlar.
14. Tibbiy xizmatlar sifati va foydasini oshirishi uchun biriktirilgan aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatilish usullari va tartib formalari tashqil qilinishi.
15. Vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotishi ekspertizasini tasdiqlangan tartibda

o'tkazish: bemorlarni shifokorlar maslaxat kommissiyasiga (VKK) va sog'liqni xolatini mehnat shifokori ekspert kommissiyasiga (VTEK) ga sog'liqni xolatini va mehnat qobiliyatini aniqlash uchun shifokor ekspertizasiga, sog'liqni saqlash Vazirligini tasdiqlangan xolatiga asosan o'tkazishi uchun yuborish.

16. Davlat Markaziy sanitariya-epidemiologiya nazoratiga (TsGSEN) o'z vaqtida infeksiyon kasalliklar, zaxarlanishlar va favqulotli vaziyatlarni aniqlanishi va ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida xabar berish.
17. Biriktirilgan aholini sog'liqni saqlash va mustaxkamlash chora tadbirlarini o'tkazish uchun jamoani keng jalb qilish.
18. Tasdiqlangan shaklli ho'jjatlarni hisob va hisobotini sifatli, o'z vaqtida olib borish.
19. Bemorlarni hurmati va huquqini amal qilish.
20. Ixtiyorda bo'lgan tibbiy asbob-uskunlarini, BTSYo apparatura va mol mulklari foydali ishlatilishi va saqlashni ta'minlash.
21. Xonalarda amaldagi norma va qoidalarga kelishgan epidemiyaga qarshi rejim va tozalik-gigiena, aseptika koidasini, asbob va materiallarni sterilizatsiya sharoitlarini saqlash, infeksiyadan keyingi asoratlarni ogoh qilish, parenteral gepatitlar,OITS, boshqa infeksiyalardan oldini olish.
22. Laborator va instrumental tekshiruvlarni mos bo'lgan diagnostika va standart jihozlar bilan o'tkazish.
23. BTSYO O'zbekiston Respublikasi qonuni tomonidan ma'n etilmagan va bu muassasalarni muljaliga javob beradigan faoliyat boshqa turlari bilan shug'ullanishi mumkin.

BTSYO boshkaruvini bosh shifokor bajaradi.

- BTSYO bosh shifokori, viloyat xokimiyatini boshlig'i bilan kelishgan holda markaziy shahar kasalxonasining bosh shifokori tomonidan tayinlanadi va ozod qilinadi, Toshkent shahrida – Toshkent shahri sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasi bilan tuman sog'liqni saqlash boshqarma organi kelishilgan holda;
- BTSYOning faoliyatini bosh shifokor boshqaradi va nazorat qiladi, ish tashqil qiladi va uni ishi natijalariga javobgarlik olib boradi, xizmat qilinayotgan territoriyada sanitariya-epidemiologiya hotirjamligiga javob beradi. Inoshchnomasiz BTSYO nomidan ish tutishi mumkin.
- Hamma muassaslarda o'zini tanitish mumkin, kelishuvlar tuzish, ishonchnoma berish, banklarda hisob-kitob va boshka hisoblar ochadi, ho'jjatlarda birinchi imzo

chekish huquqi bilan ega bo'ladi, hamma BTSYO xodimlariga muhim buyruqlar chiqaradi, BTSYO xodimlarini ishga qabul qiladi va ozod qiladi, mexnat qonuniga asosan ularni rag'barlantiradi va qarz undiradi, uni huquqiga kiruvchi boshqa funktsiyalarni bajaradi.

BTSYOning asosiy mablag' bilan ta'minlash chashmasi bo'lib davlat byudjeti xisoblanadi, byudjetdan tashqari keladigan maqlag' bo'lishi mumkin, ular:

- profil faoliyatini amalga oshirilgan xizmati va bajaruvlari;
- begona tashkilotlarga ishlatilmayotgan xonalarni vaqtinchalik arendaga taqdim etish.

- Xonalar va boshqa davlat mol mulkini;
- Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan berilayotgan xomiylik yordami;

BTSYO amalga oshirilgan qarorga munosib tezlashtirish va rivojlanish moddiy fond tuzadi, ular muassasani moddiy rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini rivojlanishi uchun ishlatiladi.

- boshqa chashma bo'lib, sog'liqni saqlash boshqarmasini territorial organi tomonidan berilgan tartibda tasdiqlangan maxsus ruxsatnoma bo'lganda aholiga pullik xizmat ko'rsatishdan kelgan daromadlar bo'lishi mumkin.

- BTSYO ijtimoiy rivojlanish savollari kollektiv kelishuv yo'li bilan xal etiladi va kollektiv shartnormasi bilan tartiblanadi. Kollektiv shartnomasi ishlab BTSYOni ishlab chiqarish va mexnat munosabatlarni, mexnat saqlanishi va sotsial rivojlanishni tartiblaydi.

- Mexnat xaqini sistemasi va formasi, BTSYO xodimlarini mexnatini moddiy tartiblanishi qonunga mos ixtiyordagi fond chegarasida tashqil etiladi. Eng past ish xaqini hajmi birlik tarif darajasiga mos belgilanadi, yuqori cheklangan hajmi chegaralanmaydi va o'tqazilgan ish sifati hamda hajmidan, sharoitidan, BTSYO xar bir xodimi bilan tuzilgan individual ish shartnomasiga asosan qo'llanadi.

BTSYOlarni ishchilari ishini moddiy rivojlantirish fondlari orqali tartiblash.

- BTSYIO o'z faoliyatini natijalarini nazoratini va hisobini olib boradi, buning uchun doimiy asosda buxgalter operativ va tibbiy hisoboti, qonunga munosib moliya-buxgalterlik, statistik va tibbiyot-statistik hisoboti olib boriladi.

- BTSYO o'z ish faoliyati natijalarini hisobotini va boshqa ma'lumotlarni amalga oshgan qonuniy kelishilgan muddatda taqdim etadi:

- tibbiyot-statistika hisobotlar – sog'liqni saqlash boshqarmasini territorial organlariga;
- statistika hisobotini – statistika davlat territorial organlariga;
- moliy-buxgalter hisobotini – territorial moliya boshqarmasi organlariga;

- qonun bilan tasdiqlanmagan boshqa hisobot turlari taqdim etilishi man etiladi. Boshqa biron bir korxona va muassasalar BTTYOning faoliyati to'g'risida axborot va hisobot talab qilishiga xaqi yo'q.

**Bttsy bosh qismlaridan biri oilaviy poliklinikalar hisoblanadi.
(BTTYO shahar eksperimental muassasasi)**

1. Shahar birinchi tibbiy-sanitariya yordami eksperimental muassasasi, byudjet tashkilot va yuridik shaxs huquqi bilan mustaqil ho'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.
2. Oilaviy poliklinika faoliyatini rahbarligini bosh shifokor boshqaradi.
3. Shtat normativlariga asosan oilaviy poliklinika shtatlari belgilanadi.

Oilaviy poliklinika funktsiyalari.

Oilaviy poliklinika quyidagi funktsiyalarni tashkil qiladi:

1. Kasalliklarni oldini olish va qisqarishiga, nogironlikga, va o'limni qisqarishiga, kasallikni erta aniqlashga yo'nalgan kompleks profilaktik chora tadbirlar o'tkazish.
2. Oilaviy- territorial printsipi bo'yicha birlashtirilgan aholisiga birinchi tibbiy-sanitariya yordam ko'rsatish(bemorlarni ambulator tarzda qabul qilish, bemorlarni xonadonga qatnab ko'rish va boshqalar).
3. Patsientlarni sog'lig'ini nazoratini olib borish, tekshiruvlardan o'tkazish, va zarur bo'lgan davolash hamda sog'lomlashtirish, dispanser kuzatish tashkil qilish.
4. Laborator va instrumental tekshirish bilan ta'minlash.
5. Bemorlarni belgilangan tartibda kasalxonalarga hospitalizatsiya qilish.
6. Patsientlarga umumiy shifokor praktikali mutaxassislar kompetentsiyasi ramkalarida malakali tibbiy yordam ko'rsatish.
7. Hayot uchun xavfli bo'lgan holatlarda yoki baxtsiz hodisalarda (travma, zaxarlanish, xayvonlar va kemiruvchilarni tishlashi va boshkalarda) tezkor ravishda tibbiy yordam ko'rsatish.
8. Ko'rsatgichlarga asosan bemorlarni boshqa davolash-profilaktika muassasalariga maxsus tibbiy yordam ko'rsatilish uchun, transportirovka bilan ta'minlash.
9. Patsientlarni vaqtincha mexnat qobiliyatini yo'qotganligi ekspertizasini o'tkazish, va shunday o'z vaqtida VTEKga umumiy mehnat qobiliyatini yo'qotishiga xos belgilari bo'lgan shaxslarni yuborish.

10. Surunkali kasalliklari bo'lgan bemorlarga va nogironlarga tibbiy- ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun ijtimoiy organlari bilan birgalikda yoki mustqil ravishda tibbiy yordam ko'rsatish.
11. Oilaga maslaxatli yordam va sanitariya-tushuntirish ishlarini olib borish:
 - Yuqumli kasalliklarni profilaktikasi;
 - ko'krak bilan emizish, bolalarni gigiyenik tarbiyasi, bolalarni sog'lig'ini yomonlashishini ogohi, ularni ta'lim olish muassasalarga tayyorlash, proforientatsiyasi;
 - reproduktiv sog'liqni saqlash, xavfsiz onalikni ta'minlash, kerak bo'lmagan homiladorlikni ogoh qilish, kontratsepsiya, etika, psixologiya, sotsial va oilaviy hayotni tibbiy-seksual aspektlari;
 - sog'lom hayot kechirish, jismoniy tarbiya va sportni ahamiyati;
 - zararli odatlar va ularni asoratlari:
14. oilaviy poliklinikaga biriktirilgan aholini sog'lig'i holatini analizi va sog'lomlantirish chora tadbirlarini rejasi ishlab chiqishi.
15. belgilangan tartibda profilaktik emlash o'tqazish, sanitariya-epidemiologiya nazorat organlariga infektsion vaziyatlar to'g'risida, parazitlar va kasbiy kasalliklar, aholini zaharlanishi, sanitar- gigiyenik qoidalarini va epidemiyaga qarshi talablarni buzish holatlarini ma'lum qilish.
16. Hisob va hisobot hujjatlarini tuzish.
17. Bemorlarni davolash va tekshirishda boshqa davolash-profilaktik muassasalar bilan ishda qabul qilish printsiplarini saqlash.

Oilaviy poliklinika tarkibi.

Oilaviy poliklinikasi tavsiya etgan tarkibi:

1. Registratura;
2. Shifokorgacha xona;
3. Maslaxat- davolash bo'limi;
4. Kunduzgi statsionar;
5. funktsional diagnostika xonasi;
6. Oral regidratatsiya punkti;
7. Sog'lom bola xonasi;
8. Klinik-diagnostika laboratoriyasi;
9. fizioterapiya bo'limi;
10. Markaziy sterilizatsiyalash bo'limi;
11. informatsion-kommunikatsion texnologiya xonasi yoki meditsina statistikasi

xonasi;

12. Buhgalteriya;

13. Administrativ-boshqarma va ho'jalik bo'limi.

14. Oilaviy poliklinika strukturalarida boshqa bo'limlar ham xonalar bo'lishi mumkin: DOTS xonasi, rentgen xonasi, izolyator, ichak va tomchi guruxli infeksiyalarga materiallar olish xonasi, balg'am olish xonasi va boshqalar.

Oilaviy poliklinika ro'yxatxonasi funktsiyalari (shahar BTTYO eksperimental korxonasi)

1. Oilaviy poliklinika registraturasi uni strukturali bo'limi deb hisoblanadi, bemorlarni poliklinikada va xonadonda o'z vaqtida shifokor qabuliga ro'yxatga olishni ta'minlaydi.
2. Registratura tarkibida: shifokorni xonadonga chaqiruvni qabul qilish va ro'yxatga olish, tibbiy ma'lumotnoma va kasallik tarixini ro'yxatga olish, tibbiy arxiv uchun alohida ajratilgan o'rinlardan iborat.
3. Registratura ishini bevosita boshqaruvchisi bosh tibbiy xamshira bo'ladi.

OP registraturasi asosiy funktsiyalari bo'lib:

1. Bemorlarni uyga chaqiruv va shifokor qabuliga dastlabki va tezkor ro'yxatga olishni ularni poliklinikaga murojaat qilishda hamda telefon orqali qabul qilinishi tashkil qilish.
2. Aholini kundalik hamda dam olish, bayram kunlari qabul qilishlarini ma'lum qilish, vaqtini va xonalar sonini ko'rsatish.
3. Aholini shifokor qabuliga yozilishi tartibi to'g'risida xabardor qilish, bosh shifokor va uni muovini aholini qabul qilish joyi va vaqtini ma'lum qilish, dorixonalar, kechki va tungi vaqtda, dam olish kunlarida, bayram kunlarida tezkor yordam beradigan statsionarlar manzilini ma'lum qilish.
4. Vaqtincha mehnat qobiliyatiga ega bo'lolmasligi to'g'risida tegishli muxr bilan tasdiqlangan tibbiy ma'lumotnoma berish, va ularni maxsus daftarlarda xisobga olib registratsiya qilish.
5. OPga qayta kelgan yoki chiqib ketgan patsientlarni xisobi va registratsiyasi.
6. Xisob xujjatlarni to'g'ri tuzish borish.

Oilaviy poliklinikada shifokordan oldingi xona funktsiyasi

1. Shifokordan oldingi xona oilaviy poliklinikada patsientni bulgan muammosini aniqlash uchun va uni umumiy oqimdan ajratish uchun tashqil etilgan, o'tkir

infektsion kasalliklarga gumonli bemorlar.

2. Sog'liqni xolatini hayotiy ko'rsatgichlarini o'lchash va baholash.
3. Zarur bo'lganda bakteriologik tekshiruvga material yig'ish, va shifokorgacha tezkor yordam berish.
4. Shifokorgacha bo'lgan xonada malakali tibbiy xamshira ishlash lozim, shifokorgacha bo'lgan xonani ish faoliyatini bosh tibbiy xamshira nazorat qiladi.

Oilaviy poliklinikani sog'lom farzand xonasini funktsiyalari

1. Sog'lom farzand xonasiga javobgarlikni UASH hisobidagi, tajribali yoki maxsus tayyorgarlik ko'rgan tibbiy xamshirasi olib boradi.
2. Sog'lom xonada umumiy praktika shifokorlari va tibbiy xamshiralar ota-onalarga bolalarni to'g'ri parvarish qilishga ko'nikishlarini o'rgatish individual ishlar olib boradilar.
3. Sog'lom farzand xonasiga qatnash rejasini umumiy praktika shifokori tuzadi.
4. Sog'lom farzand xonasiga :
 - yosh bolalarni ota-onalari bilan individual va kollektiv suhbat olib borish uchun:
 - "Onalar maktabi" tashqil qilinishi uchun:
 - Ota –onalarni bolalarni parvarish qilish metodikalarini o'rgatish, kun rejimini tashqil qilish uchun, yoshiga mansub massaj komplekslariga, bolalar oziqasini tayyorlash texnologiyasiga, qo'shimcha oziqlanish va oziqlantirish kiritish rejalari,qoidolari;
 - maktabgacha bo'lgan muassasalarga qatnashni qoidalariga bolalarni individual tayyorlash.

Oilaviy poliklinika bosh shifokori funktsiyalari

1. Poliklinika Bosh shifokori yakkaboshchilik asosida faoliyat boshqaruvini olib boradi va kreditlarni taqsimlovchi bo'ladi.
2. Oilaviy poliklinika Bosh shifokori tayyorlanadi va ozod qilinadi Toshkent shahrida Toshkent shahri Sog'liqni Saqlash boshqarmasi organlari bilan tuman Sog'liqni Saqlash boshqarmasi kelishilgan holda; Marg'ilon, Samarqand, Guliston shahrilarida – ish faoliyati 5 yildan kam bo'lmagan davolash va tashqilot ishlarida tajribasi bo'lgan malakali shifokorlar tizimidan bo'lganlar, markaziy shahar kasalxonasi Bosh shifokori va viloyat xokiyamiatining Sog'liqni Saqlash boshqarmasi kelishilgan xolatda.
3. Oyilaviy poliklinika Bosh shifokori yagona territorial Sog'liqni Saqlash

boshqarmasi organlariga bo'ysinadi.

4. Bosh shifokor O'zbekiston Respublikasi amalga oshgan meyyoriy-huquqiy aktlari, sog'liqni saqlash boshqarmasi yuqori organlar buyruqlari va boshqarmalari, muassasa Ustavi, va ega bo'lgan sharoit bilan o'z faoliyatini boshqaradi.
5. Oilaviy poliklinika Bosh shifokorini funktsional majburiyatlari:

Bosh shifokor majburiyati bo'lib, oyilaviy poliklinikada va xonadonda aholiga malakali tibbiy yordam tashqil qilish.
6. Amaldagi buyruqlarga asosan aholini dispanserizatsiya qilish.
7. Muassasada davolash-diagnostika va profilaktika ishlarini sifatini oshirishga yo'naltirilgan chora tadbirlar o'tkazish.
8. Umumiy va yuqumli, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotishiga olib keladigan kasalliklarni, aholini umumiy o'lim ko'rsatkichi va nogironlikni kamaytirish va yo'qotishga qaratilgan chora tadbirlarni tashqillashtirish va o'tkazish.
9. Xonalarni, personal bo'limlarini va boshqa qo'shimcha bo'limalarni ish jadvalini tuzish va ularni nazorat qilish.
10. Ishchi va xizmatchilarni vaqtincha ish faoliyatini yo'qolishi ekspertiza ishini sifatli o'tkazish.
11. Statsionarlar bilan birgalikda bo'lgan poliklinika ishlarini tashqil qilish.
12. Poliklinika ishlarida yangi profilaktika metodlari va yangi vositalar, diagnostika, davolashni kiritish. Xodimlar ishiga va aholiga tibbiy yordam ko'rsatish yangi uyushmali formalari.
13. Poliklinikani tibbiy xodimlarini faoliyatini osonlanshiruvchi zamonaviy tibbiy asbob-uskunlar bilan ta'minlash.
14. Tegishli bo'lgan binolarni, qurilishlarni, asbob- uskunalarni ishlatish va ularni xolatiga qarash, o'z vaqtida ularni profilaktikasini o'tkazish, va kapital remontiga qarash.
15. Aholi o'rtasida tozalik oydinlantirish ishlarini har hil ommaviy axborotlarni ishlatib o'tkazish.
16. Poliklinikada boshqaruvchini aholi va xodimlarni qabul qilish vaqti va soatlarini ajratib yozilishi; o'z vaqtida takliflarni, ariza va shifoktlarni ko'rib chiqish, va ularni har biriga alohida aniq chora ko'rish.

Oilaviy poliklinika Bosh shifokori huquqi:

1. Xodimlarni amalga oshirilgan qonun qoidalariga asosan, ishga tayyorlash va

ozod qilish.

2. Xodimlarni mukofotlash va intizomli qarzni undirishni yuklash.
3. Buyruqlar chiqarish, kreditlarni boshqarmoq, shartnomalar tuzish, majburiyatlar yuklash, va poliklinika nomidan amalga oshgan qonun qoidalarga asosan boshqa harakatalarni tashqil qilish.
4. Poliklinikada hamda xonadonlarda ko'rsatilgan tibbiy yordam, tekshiruv, diagnostika, va bemorlarni davolash sifatini nazoratlarini tuzish.
5. Poliklinikani sodda, hakamlar sudi, davlat organlarida, jamiyat va boshqa uyushmalarda kasb qiladi.
6. O'z kasbi malakasini oshirish va belgilangan tartibda malaka darajasini o'zlashtirish uchun attestatsiyadan o'tish.

Bosh shifokor shunga javob:

1. Oilaviy poliklinikada zamonaviy talablarga munosib va ilm hamda texnika rivojlanish satxida bo'lgan davolash- diagnostik protsessini sifati va darajasi.
2. Tibbiy va boshqa kadrlarni to'g'ri ishlatish va belgilash, o'z vaqtida va to'liq vazifa shtatlarini komplektlash.
3. Ishga qabul qilinayotgan xodimlarning mexnatni muxofaza qilish, xavfsizlik texnikasi, yong'indan xavflik, va vazifalik instruktsiyalari bilan tanishtirish, ichki mehnat tartib qoidalari va boshqa muhim hujjatlar bilan tanishtirish.
4. Tibbiy uskunalarni, apparaturalarni saqlanishi, byudjet vositalarini, medikamentlarni hamda boshqa moddiy va mulkiy qiymatlarning maqsadli va foydali ishlatilishi.
5. Tibbiy xizmatlarni sifatini oshirishiga yo'nalgan o'z vaqtida yangi metodlarni kiritish.
6. Kasallik varaqalarini, blankalarni, retsept blankalarini, narkotik vositalari uchun blankalarni va boshqa o'zgacha hujjatlarni hisobga olish, saqlanishi va berilishini uyushtirish.
7. Ishlab chiqarilgan rejaga mansub tibbiy xodimlarni malakasini oshirish.
8. Xodimarga o'z vaqtida mansub bo'lgan buyruq, farmon va instruktiv-metodik tavsiyalar va boshqa normativ hujjatlarni ma'lum qilib bildirish.
9. Shifokorlar va boshqa xodimlarning yangi metodlar to'g'risida va profilaktika, diagnostika hamda davolashni sistematik informatsiyasini.
10. Tozalik- gigiyena va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni saqlash.
11. Poliklinikani oilaviylashtirish faoliyatini yaxshilash uchun jamoatni jalb qilish.
12. Yuqori turuvchi raxbariyatga o'z vaqtida va aniq moliy hisobotni taqdim etish.

13. Oilaviy poliklinikani yong'indan xavfsizligini, mehnat va xavfsizlik texnikasini muxofaza qilinishi.

Oilaviy poliklinika Bosh shifokorini davolash ishlari bo'yicha muovini funksiyalari

1. Bosh shifokor muovini vazifasiga, davolash va tashkillashtirish ishlarida tajribasi bo'lgan shifokor tayyorlanadi.
2. Bosh shifokor muovini Bosh shifokor tomonidan ishga qabul qilinadi va ishdan ozod qilinadi.
3. Bosh shifokor bo'lmagan vaqtda (ta'til, kasallik, komandirovka) Bosh shifokor muovini uning hamma huquqlari bilan foydalanadi va uning vazifasini bajaradi.
4. Bosh shifokor muovini respublika, territorial va regional Sog'liqni Saqlash boshqarmasi organlarini amalga oshirilgan normativ-huquqiy aktlari, buyruq va farmonlari bilan ishda foydalanadi, shunday poliklinika holati hamda oyilaviy poliklinika bosh shifokori buyruqlari bilan.

Bosh shifokor muovini majburiyatlari bo'lib:

1. Poliklinikada va uni tashqarisida o'tkazilayotgan ozodalik-oydinlantirish, davolash-sog'lomlashtirish, profilaktik chora tadbirlarni o'tkazilishini rejalash va nazorat qilish.
2. Poliklinikada va xonadonda bemorlarga sifatli davolash-diagnostik yordam tashkillashtirish.
3. Hamma davolash- profilaktik muassasalar bilan ishlarda birgalikda ishlash va o'tkazishni ta'minlash.
4. Vaqtincha mehnat qobiyalitini yo'qolgani ekspertizasini amalga oshirish, bemorlarga guvohlik berish uchun VTEKga yuborish.
5. Xomiladorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatish tashkilotlarni nazorat qilish.
6. Poliklinikada va infeksiyon kasalliklar o'choqlari joyida profilaktik va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni o'tkazilishni tashqil qilish va nazorati.
7. Oilaviy poliklinika tibbiy xodimlarini o'z vaqtida va sifatli tibbiy ko'riklaridan o'tishlari nazorati.
8. Shifokorlarni malaka oshirish va attestatsiyasi rejalarini ishlab chiqarish va amalga oshirish.
9. Poliklinikada shifokorlar konferentsiyalarini tashqillash va o'tkazish.
10. Tibbiy hujjatlarini olib borilishi, shubhasizlikni, statistik ma'lumotlarini, o'z

vaqtida aniqlangan statistik ma'lumotlarini tuzilishi va ularni taxlilini nazorati.

11. Hisobda turgan bemorlar va fertil yoshdagi ayollar dispanser ko'rigini tashkil qilish, xomiladorlikka salomatligi umuman va birmuncha to'g'ri kelmaydigan ayollarni aniqlash va ularni sog'lomlashtirish.
12. Oila rejalashtirish va kontratsepsiya bilan nazoratni amalga oshirish.

Davolash ishlariga ma'sul Bosh shifokor muovini huquqi:

1. Tibbiy xodimlarning tanlash va joylashtirishda ishtiroq etishi.
2. Rahbarga poliklinika xodimlarini rag'barlantirish yoki tartib-imtizomlik qarzni undirishda taklif bildirishi.
3. Poliklinika xodimlariga buyruqlar loyihalarini tayyorlash, ko'rsatmalar va buyruq berishi.
4. O'z kasbini tajribasini oshirish va belgilangan tartibda tajriba toifasini o'zlashtirish uchun attestatsiyadan o'tish.

Davolash ishlari bo'yicha Bosh shifokor muovini javobgarligi:

1. Poliklinikada davolash-dagnostik, profilaktik va ozodalik-oydinlantirish ishlarini tuzish.
2. O'z vaqtida xodimlarga adminisstratsiyani mansub buyruqlarini va ko'rsatmalarini, shunday instruktiv-metodik va boshqa direktiv xujjatlarini ma'lum qilish.
3. O'z ishini natijalari, biriktirilgan aholiga xizmat sifati, shunday o'z funktsional majburiyatlarini bajarishda amal qilgan yoki amal qilmaganligida kelib chiqqan asoratlar bo'lib poliklinika faoliyatiga yoki patsientlar sog'lig'iga zarar etkazganga.
4. Tibbiy uskunalarni va shunday tezkor tibbiy yordam ko'rsatish uchun medikamentlarni saqlanishi va foydali ishlatilishi.
5. Hisob-kitob hujjatlarini va taqdim etilgan statistik ma'lumotlarini shubhasizligi.

Oilaviy poliklinika bo'limi mudirini funktsiyasi

Oilaviy poliklinika mudiri vazifasiga o'z kasbiga tayyorlangan va zarur bo'lgan tajribaga egali hamda tashkilotchi qobiliyatiga ega bo'lgan umumiy praktika shifokori tayyorlanadi.

2. Bo'lim mudirini ishga tayyorlash va ozod qilish oyilaviy poliklinika rahbari tomonidan amalga oshirilgan qonun qoidalariga asosan bajariladi.
3. Bo'lim mudiri faqat oilaviy poliklinika bosh shifokori muoviniga bo'ysinadi.
4. O'z ishida bo'lim mudiri poliklinika vaziyatlari, lavozimli shaxslar vaziyati, BTSYO Ustavi, buyruqlar va Sog'liqni Saqlash yuqori organlarini instruktsiyalari,

oilaviy poliklinika rahbariyati ko'rsatmalari va rasmiy buyruqlari hamda amalga oshirilgan qonun qoidalarga amal qiladi.

Maxsus bo'limi mudirini vazifasiga kiradi:

1. Bo'lim xodimlarini faoliyatini boshqaruvini amalga oshirish.
2. Bo'limda hamda xonadonlarda davolash-tashxis va profilaktika ishlarini tashqil qilish.
3. Bo'lim shifokorlari tomonidan o'tkazilgan davolash va tashxislarni nazorat qilish.
4. Shifokorlar uchastkalarida egalangan kontingentni profilaktik emlash bilan urab olishni rejasini nazorat qilish.
5. Harbiy xizmat o'tuvchilar hamda o'smirlarni tekshirish va sog'lomlashtirishni sitfatini nazorat qilish;
6. Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish ekspertizasini bo'lim shifokorlari tomonidan sifatli o'tkazishni tashqil qilish, va vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qolish ekspertizasini amalga oshgan qonun qoidalariga mansubligini nazorat qilish.
7. Bo'lim xodimlarini ish jadvalini tuzish.
8. Diagnostika va mehnat tashkilini, bo'lim praktika ishlarida davolash metodlarini oldingi formalarini joriy etish.
9. Bemorlarni majburiy shaxsiy ko'rikdan o'tkazib rejali gospitalizatsiyasini tashqil etish, va gospitalizatsiya uchun berilgan orderni va ambulator kartasidan ko'chirmasi to'g'ri va to'liq tuzilishini tekshirish.
10. Dispanser nazoratida bo'lgan bemorlarni, dispanser nazoratida turgan va dispanser nazoratga qayta olingan bemorlarni sifatli va foydali dispanserizatsiyasini tashkil qilish.
11. Dispanserli bolalarni guruhini va uchastkadagi bir yoshgacha bo'lgan bolalarni UASH shifokorlari tomonidan nazoratini tekshirish.
12. Bo'lim shifokorlari tomonidan infeksiyon kasalliklarni ilgaritdan aniqlashi va davolashini tashkil etish, ular tomonidan o'z vaqtida davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markaziga xabar berishlarini tashkil etish.
13. O'zbekiston Respublikasi chegarasidan chiqadigan, va sanator-kurort davolanishga boradigan shaxslarni to'g'ri ajratilishini tekshirish.
14. Shifokor va o'rta tibbiy xodimlar tomonidan aholi hayotida sog'lom hayot propagandasini o'tkazish ishlarini tashkil qilish.
15. Har bir xodimni ko'rsatgich analizlariga va o'tkazilgan tekshiruvlarga asosan, bo'limda shifokorlar va o'rta tibbiy xodimlarni malakasini oshirish ishlarini tashkil etish.

16. Bo'lim ishlarini hisoboti va ish rejasini tuzish.

Bo'lim mudiri huquqlari:

1. Bo'limdagi ishga kadrlarni tanlashga qatnashishi, ularni o'rtalarida ish vazifasini va o'rinlarini belgilash, xodimlarni rag'barlantirish yoki qarz to'lashini yuklashda takliflar kiritish.

2. O'z kasbinini malakasini oshirishi va malaka darajasini oshishni o'zlashtirish uchun belgilangan tartibda o'tish.

Bo'lim mudiri javobgarlik olib boradi:

1. Xodimlar diqqatiga o'z vaqtida mansub bo'lgan buyruqlarni va ko'rsatmalarni, instruktiv-metodik va boshqa direktiv hujjatlarini ma'lum qilish.

2. O'z ishini natijalari, biriktirilgan aholiga ko'rsatgan xizmat sifatini, hamda patsientlarni sog'lig'iga zarar etkazgan, yoki oyilaviy poliklinika faolyatiga zarar etkazgan, o'z funktsional majburiyatlarigina taluqli bo'lgan hatti-xarakatlari yoki xarakatsizliklarini natijalari.

3. Tibbiy uskunalarni hamda tez yordam ko'rsatish uchun bo'lgan medikamentlarni saqlanishi va foydali ishlatilishi.

4. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlari va hisob-kitob hujjatlarini shubxasizligi.

5. Bo'limda tozalik-gigiyena va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarini saqlash.

Oilaviy poliklinika umumiy praktika shifokorini funktsiyalari (BTSYO shahar eksperimental korxonalari)

I. Umumiy holatlar

1. (UASH) umumiy amaliyot shifokori – (davolash ishlari yoki umumiy amaliyot shifokori) profili bo'yicha oliy tibbiy ma'lumotli diplomli mutaxassis, biriktirilgan aholiga yoshi va jinsi qanday bo'lganidan qattiy nazar aholini sog'lig'ini saqlash chora tadbirlarini o'tkazish, kasalliklarni profilaktikasi o'tkazilishi va tez tibbiy yordam ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan.

2. Umumiy praktika shifokori lavozimiga, umumiy amaliyot shifokori diplomi bo'lgan yoki boshqa mutaxassisga ega bo'lgan, umumiy amaliyot shifokorini maxsus programmasidan muvafaqiyat bilan bitirgan va malaka tavsifiga javoban mos sertifikat olgan shifokor tayyorlanadi.

3. Umumiy amaliy shifokori boshqa shifokorlar bilan birgalikda (guruhli amaliyot) yoki alohida tibbiy yordam ko'rsatadi. Aholini sotsial-demokratik tizimiga qarab, shifokorlar guruh boshqa mutaxassislarni ham qo'shishi mumkin, shu jumladan

sotsial xodimlarini.

4. Umumiy amaliyot shifokori regional va territorial sog'liqni saqlash boshqarmasi organiga mansub, O'zbekiston Respublikasi qonun qoidalaridan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi buyruqlari va instruktiv-metodika hujjatlaridan o'z faolyatini yurgazishda foydalanadi.

5. Umumiy amaliyo' shifokorlarini ishga tayyorlashda va ishdan ozod qilishda oyilaviy poliklinika Bosh shifokori, O'zbekiston Respublikasida amalga oshgan qonun qoidalariga mansub amalga oshiradi.

Umumiy praktika shifokori majburiyatlari:

1. Biriktirilgan aholiga ularni sog'lig'ini saqlash, tez tez uchraydigan kasalliklarni profilaktikasi va davolalash maqsadida alohida patsientlarga nisbatan butun oyilaga ham bir satxda tibbiy xizmat ko'rsatishi.

2. Maxsus tibbiy muassaslarga patsientlarni o'z vaqtida gospitalizatsiya va maslaxatga yuborish.

3. Xizmat ko'rsatilayotgan territoriya aholisiga standartlarga mansub va egallangan asbob uskunalarga xos davolanishgacha bo'lgan tezkor tibbiy yordam ko'rsatish.

4. Xizmat ko'rsatilayotgan aholida o'lim, nogironlik, travmatizm bo'yicha profilaktika chora tadbirlarini olib borish.

5. Sog'lom hayot kechirish propagandasini bilan shug'ullanish (to'g'ri oziqlanish maslaxatlari, chekish bilan kurashish, alkogolni su'iste'moli, sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish).

6. Epidemiyaga qarshi sanitariya kompleks chora tadbirlari tashkil qilinib o'tkazilishi: emlash profilaktikasi, biriktirilgan ho'jalik va xonadon ho'jaliklarini tozaligini umumiy tekshirish, o'choqli infeksiyon kasalliklari joyida observatsiya chora tadbirlarini o'tkazish, xizmat ko'rsatilayotgan territoriyada epidemiya analizi, biriktirilgan aholiga epidemiologik xavfli vaziyatlar to'g'risida ogohlantirish.

7. Xomilador ayollarni dispanser nazoratini tashkil qilish, ularni patronajini xonadonda o'tkazish, zarur bo'lgan xolatlarda ularni mutaxassislar ko'rigiga, tug'ruqqacha har bir patsientkaga ratsional DPM turini tayinlash, tug'ruqdan keyingi nazorati va tug'ruqdan keyingi xolati qoniqarli kechishida hisobdan echish, tug'ma anomaliyalarni tez tez takrorlanishini va nasliy kasalliklarni kamaytirish.

8. Biriktirilgan aholini sog'lom hayot kechirish uchun kompleks chora tadbirlar tashqil etib ularga o'quv o'rganishni o'tkazish, bu jumladan:

- o'smir avlodni sog'lomlashtirish;
- ona va bolalarni himoya qilish;
- kerak bo'lmagan xomiladorlik, oyilani ratsional rejalash, etika, psixologiya,

gigiyena, sotsial va boshqa oila aspektlari profilaktikasi;

- xomiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda;
- ko'krak bilan boqish;

- ratsional oziqlanish;

- tozalik va gigiyena asoslari;

9. Sotsial xodimlari bilan birgalikda surunkali kasalligi bo'lgan bemorlarga, nogironlarga, qariyalarga, yolg'izlarga tibbiy- sotsial yordam tashkil etish.

10. Biriktirilgan aholi (bolalar, o'smirlar, tug'adigan yoshdagi ayollar, surunkali kasalligi bo'lgan bemorlar) o'rtasida dekretlangan kontingentlarni dispanserizatsiyasi, biriktirilgan aholini o'rtasida oldindan kasallikni aniqlash va belgilangan tibbiy ko'riklarini tashkil qilib utkazish.

11. Sotsial ma'noli kasalliklar (tuberkulez, teri-tanosil kasalliklari, xavfli o'smalar, VICH infeksiyalar va OITS) bilan kurashish tufayli davolash- profilaktika chora tadbirlarni o'tkazish.

12. Biriktirilgan aholini vaqtincha va doimiy mehnat qobiliyatini yuqolishiga olib kelgan kasalliklarni sabablarini o'rganish, kasallanish va travmatizmning kamaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

13. Biriktirilgan aholiga tibbiy xizmatlarni sifatini oshirish uchun va tibbiy xizmat ko'rsatish tashqil etilgan formalari va metodlarini rivojlantirish va takomillashtirish.

14. Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bo'yicha ekspertizani o'rnatilgan tartibda o'tkazish; Sog'liqni Saqlash Vazirligi instruksiyasiga hos sog'lig'ini xolatini va mehnatga loyaqatligini shifokorlar ekspertizasini o'tkazishi uchun bemorlarni VKK va VTEK tekshiruvlariga yuborish.

15. Markaziy Davlat sanitariya epidekmilogiya nazoratiga o'z vaqtida aniqlangan infeksiyon kasalliklar, zaxarlanishlar va favqulotdagi holatlar bo'yicha habardor qilish.

16. Biriktirilgan aholini sog'lig'ini saqlash va mustaxkamlash chora tadbirlarini ishlab chikarishda jamoatni keng jalb qilish.

17. Hisob va hisobot ho'jjatlarini tasdiqlangan formada sifatli va o'z vaqtida olib borish.

18. Patsinetlarni huquqini saqlash, ularni tibbiy ma'lumotini sirda tutishi huquqi bilan birgalikda.

19. Mavjud bo'lgan tibbiy asbob uskunlari, apparaturalari saqlanishi va foydali ishlatilishini ta'minlash.

20. Tug'ruqxonalar, ayollar maslaxatxonalar bilan doimiy aloqada bo'lish, va xomilador ayollarni nazoratida qabul qilish qoidalarini saqlash, ayniqsa (xavf) guruhiga kiradiganlarni.

21. Tug'ruqxonadan chiqqan yangi tug'ilgan chaqaloqlarni birinchi 2-3 kunlarida tibbiy xamshira bilan birgalikda xonadonga qatnash, sog'liq guruhini aniqlash, shuning uchun dinamik nazorati rejasini va sog'lomlashtirish chora tadbirlarini tuzish va ularni hayotga oshirish.

22. Bolalarni poliklinikada qabul qilish, jismoniy va nerv- asabiy bolalarni rivojlanishini baholash, ularga ratsional oziqlanish rejimi buyurish, raxit spetsifik va nospetsifik profilaktikasi.

23. Bolalarni zarur bo'lgan laborator tekshiruvlari va boshqa mutaxassislar maslaxatlariga yuborish.

24. Bemorlarni chaqirtirilgan kunidayoq xonadoniga qatnash, zarur bo'lgan xolatda tibbiy yordam ko'rsatish, bemorlarni sog'ayib ketguniga qadar nazorat qilish; bir yoshgacha bo'lgan bolalarni kundalik nazorati, zarur bo'lgan xolatda uni davolanish muassasiga tezkor yotkazish choralarini ko'rish. Bo'lim mudiriga uchastkadagi og'ir kasallar qadayddir sabalarga ko'ra kasalxonaga yotkazilmaganligi to'g'risida habar berish.

25. Tibbiy xamshira bilan birgalikda profilaktik emlashlarni rejalash.

Umumiy praktika shifokori shunday huquqqa

ega:

1. O'rnatilgan tartibda o'z kasbini malakasini oshirish va malaka darajasini o'zlashtirishga attestatsiyadan o'tish.

2. Amalga oshirilgan normativ ho'jjatlarga mansub ambulator bemorlarga mexnat qobiliyati bo'lmagan yoki oyilada qaramog'ida bulgan bemorlar uchun beoriladigan varoqlarni berish.

3. Xonadonda o'lim to'g'risida shifokor guvoxnomasini berish.

4. Biriktirilgan aholiga tibbiy-sotsial yordamni yaxshilanish muammolari bo'yicha Sog'liqni saqlash boshqarmasi yuqori organlariga va oyilaviy poliklinika rahbariyatiga takliflar kiritish.

5. Kengash majlislarida, ilmiy-praktik konferentsiyalarida ishtiroq etish, umumiy praktika shifokori vazifasi va maqsadiga xos bo'lgan har hil ommabop va kasbga oid tashkilotlarga a'zo bulish.

6. Boshqa mutaxassislar tomonidan o'tkaziladigan chora tadbirlarga qatnash.

Umumiy praktika shifokori shunga javobgarlik olib

boradi.

1. O'z ish faoliyatini sifati va natijalari, shunday o'z ishini funksional majburiyatlarini xamda unga biriktirilgan urta tibbiy xodimlar xarakatlari yoki xarakatsizliklarini natijalarida, asorati bo'lgan oyilaviy poliklinika faoliyatiga va

patsientlarni sog'lig'iga zarar etkazgan natijalar.

2. Patsientlarga tezkor tibbiy yordam ko'rsatilganda tibbiy asbob uskunlarni va dori-darmonlarni saqlanishi va foydali ishlatilishi.
3. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlari va xisob-kitob xujjatlarini shubxasizligi.

Oilaviy poliklinika tibbiy statistik funktsiyalari

1. Statistik vazifasiga o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan va tibbiy statistika ixtisosi bo'yicha tayyorlangan shaxslar tayinlanadi.
2. Tibbiy statistik Bosh shifokor tomonidan tayinlanadi va ishdan ozod qilinadi.
3. Tibbiy statistik bevosita Bosh shifokor muoviniga bo'ysinadi.
4. Tibbiy statistik o'z ishida Bosh shifokor va Bosh shifokor muovini buyruq , ko'rsatmalari va farmoyishlarini, hamda tibbiy statistiklar uchun belgilangan instruktsiyalari va qoidalarini qo'llaydilar.

Tibbiy statistik majburiyatlari bo'lib:

1. Tasdiqlangan tibbiy-statistika hisob ho'jjatlari ustida ishlab borish va analizini o'tkazish.
2. №39 formasini oyma-oy yig'ib ishlov berish.
3. Poliklinika faoliyatini ta'riflovchi asosiy ko'rsatgichlarni hisobini chiqarish.
4. Muassasada vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qolishi kasalliklarini har oy hisobini o'tkazish.
5. Vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bo'yicha kasalliklarni tavsiflaydigan ko'rsatgichlarni chiqarish.
6. Yillik va kvartal hisobotini tuzish.
7. Statistika jadvallariga o'tgan yil ma'lumotlarini solishtirib tuzish.

Tibbiy statistik huquqga ega:

1. Poliklinikada ajratilgan bo'limlarda hisob-hisobot ho'jjatlarini to'g'ri olib borilishini tekshirish.
2. Har oy kasalliklarni hisobotini olib borish, ko'rsatgichlarni chiqarish va hisobot tuzish uchun, poliklinikani ajratilgan bo'limlaridan zarur bo'lgan ma'lumotlar olish.
3. Belgilangan mukamallashtirilgan kurslarida o'z kasb malakasini oshirish.
4. O'z mehnat sharoitini yaxshilash uchun ma'muriyatga tavsiyalar kiritish.

Tibbiy statistik shunga javobgar;

1. Statistik hisobotni o'z vaqtida va to'g'ri tuzish.
2. Olingan natijalarni ob'ektivligi va gumonsizligi.

VAQTINCHALIK SHTAT NORMATIVLARI:

**BTSYO shahar eksperimental muassasalarida, mustaqil yuridik shaxs sifatida
«Salomatlik-2» va «Ayollar va bolalar salomatligini mustaxkamlash»
loyixalarini jadvallarida funktsiyalanadigan.**

<i>Nº p/p</i>	Vazifa nomlari	Shtat birliklarini normativi	Hisobdan
	Shifokor xodimlar		
1	Umumiy amaliyot shifokori	1,5	BTSYOga biriktirilgan 2000 ta odamga.
2	Shifokor - laborant	1,0	20ta ambulator qabuli shifokoriga
	O'rta tibbiy xodimlari		
1	Bosh tibbiy xamshira	1,0	Muassasa bo'yicha
2	UASh tibbiy xamshirasi	2,0	1 ta UASh vrachi lavozimiga
3	Laborant	1,0	8ta ambulator qabuli shifokoriga
4	fizioterapiya bo'yicha tibbiy xamshira	1,0	Bir yilda 15000 kelishilgan fizioterapevtik birligi
5	Massaj bo'yicha tibbiy xamshira	1,0	10ta ambulator qabuli shifokoriga
6	Davolash jismoniy tarbiya instruktor (LFK)	1,0	40ta ambulator kabuli shifokoriga
7	funktsional diagnostika tibbiy xamshirasi (EKG,UZI, EXO, REG)	1,0	1ta uskunalar bilan jihozlangan xonaga
8	Protseduralar xonasi tibbiy xamshirasi	1,0	10ta ambulator qabuli shifokori
9	Emlash xonasi tibbiy xamshirasi	1,0	3000ta maktabga, bolalar yaslisi, bog'cha-yasliga qatnamaydigan bolalarga.
10	Markaziylashtirilgan sterilizatsiya bo'limi tibbiy xamshirasi (OTsS)	1,0	20ta shifokor lavozimiga

11	Tibbiy statistik	1,0	20ta shifokor lavozimiga
12	Tibbiy registrator	1,0	6ta ambulator qabuli shifokoriga
	Kichik tibbiy xodim		
1	Ho'jalik bekasi	1,0	Bir muassasaga
3	Laboratoriya sanitarkasi	1,0	4ta shifokor-laborant va laborantga
4	Fizioterapiya sanitarkasi	1,0	2ta fizioterapiya tibbiy xamshirasi lavozimiga.
5.	Muolaja xonasi sanitarkasi	1,0.	Bir xonaga bir smenaga
6	Emlash xonasi sanitarkasi	1,0	1ta emlash xonasi tibbiy xamshirasiga
7	OTSS sanitarkasi	1,0	OTsS 1ta tibbiy xamshirasiga
	Ma'muriyat- raxbariyat va xo'jalik xodimlari		
1	Bosh shifokor	1,0	Bir muassasaga
2	Davolash bo'yicha bosh shifokor muovini	1,0	Bir muassasaga
3	Moliya menedjeri (bosh buxgalter xukukiga egalik	1,0	Bir muassasaga
4	Iqtisodchi	1,0	Bir muassasaga
5	Buxgalter –kassir	1,0	Bir muassasaga
6	Kadrlar bo'yicha mutaxassis	0,5	200ta ishchiga
7	Kotib	1,0	Bir muassasaga
8	Sanitar-texnik bo'g'imlar slesari	1,0	300ta sanitar-texnik nuqtali aunktiga (rakovina, unitaz, vanna yoki dush o'rnatishlariga)
9	Elektrta'mirlovchi	1,0	750ta yorituvchi nuktalarga
10	Xovli tozaligiga qarovchi	1,0	2500 kv.m.territoriyasiga
11	Qorovul	3,0	Har bir muassasada va uni filialida

Eslatma:

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami yuridik mustaqil shahar eksperimental

korxonalarini shtat jadvalini tuzishda, quyidagilarni hisobga olish lozim:

1. Bo'lim mudiri lavozimi 9ta umumiy praktika shifokoriga 1ta belgilanadi. Shunda bo'lim mudiri bir shtati umumiy praktika shifokorini bir shtati o'rniga kiritiladi.
2. Umumiy praktika shifokorlari soni 6,5dan to 9 gacha bo'lganida, bo'lim mudirini lavozim 0,5 umumiy praktika shifokori o'rniga kiritiladi.
3. Shifokor rentgenolog lavozimi asbob-uskunalar xona (bo'lim) mavjud bo'lgan xolda belgilanadi.
3. Kunduzgi statsionar mavjud bo'lgan holda quyidagi lavozimlar tayinlanadi:
 - statsionarda 25ta yotoq o'ringa 1ta kunduzgi shifokor;
 - har bir shifokor lavozimiga 1ta tibbiy xamshira hisobdan;
4. Oddiy remont xizmatlarini bajaruvchi ishchi, ichki sanitar-texnik sistemalari montaj ishchisi va elektromontyor lavozimlari o'rniga kiritiladi, normativ bo'yicha, ko'rsatilgan boshqa lavozimlarga belgilanish mumkin bo'lmagan holda.

5. SHAHAR BOLALAR KASALXONASI.

5.1. Shahar bolalar kasalxonasining faoliyati to'g'risida umumiy ma'lumotlari:

Masalalar:

1. Bolalarga nisbatan eng yangi tibbiyot ilmiy va praktika erishishlari asosida davolash profilaktik yuqori malakali yordam ko'rsatish.
2. Xizmatidagi praktikaga, bolalar aholisiga zamonaviy profilaktika metodlarini kiritish, diagnostika va bemorlarni davolashda asoslangan tibbiy ma'lumotlarni ishlatish.
3. Muassasalarni ish metodlarini va tashqillangan formalarini rivojlanishi va mukamallashtirish.

Bolalar kasalxonasining strukturasiga quyidagi bo'limlar kiradi.

Qabul bo'limlari (boksli).

1. Statsionar.
2. Laboratoriya-diagnostika kompleksi.
3. Patologo-anatomiya bo'limi (morg).
4. Yordamchi bo'limlar: dorixona, oshxona, tibbiy statiska bo'limi: tibbiy arxiv; kutubxona; omborxona; ma'muriy - ho'jalik kism.

Shahar kasalxonasi ko'rinishi, hajmi, ko'rsatilgan yordam xarakteri bo'yicha va mehnat tashkillashtirish sistemasi bo'yicha bo'lishi mumkin:

A) profil bo'yicha: ko'p profildagi yoki maxsuslangan (bir profildagi)

B) tashkillashtirish tizimi bo'yicha – poliklinikaga biriktirilgan yoki biriktirilmagan;

V) faoliyat hajmi bo'yicha – har hil toifali (yotok o'rin quvvatli).

Bolalar kasalxonasining shtatlari

Statsionarda shifokor – ordinator 20ta yotoq o'ringa xizmat qiladi. Bo'limda 60tadan ko'p bo'lgan yotoq o'rin uchun bo'lim mudiri lavozimi ajratiladi; bo'limda 200ta yotoq o'ringa qabul bo'limi shifokori ajratiladi. Bitta tibbiy xamshira kunduzi 8-10ta go'dak bolalarga xizmat ko'rsatadi, kechasi 15ta bolaga xizmat ko'rsatadi; katta bolalar bo'limida bitta xamshira 15ta bolaga kunduzi xizmat ko'rsatadi, va kechasi 20-25ta bolaga xizmat ko'rsatadi. Har bir bo'limda ho'jalik bekasi va katta tibbiy xamshira mavjud. Bolalar kasalxonasini shtatalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining № 155 sonli 1000ta bolalar aholisiga 3,4 yotoq o'rin hisobidan, 10.04.2006 yildagi qarori bilan tasdiqlangan, amalga oshgan shtat normativlariga mansub belgilanadi.

Shahar bolalar kasalxonasining umumiy pediatriya bo'limida 60ta yotoq o'rniga taxminiy shtatlari:

Bo'lim mudiri	– 1	ho'jalik bekasi	– 1
Ordinator shifokorlari	– 3	sanitarka-farroshi	– 6
Katta tibbiy xamshira	– 1	bufetchi	– 1
Palatada tibbiy xamshirasi	– 12	ovqat uzatib turuvchilar	– 2

Bolalar shifoxonasini toifalari

Toifalar. Bolalar kasalxonasi quvvati bo'yicha 7ta toifaga bo'linadi:

1. 300 – 400 o'rin;
2. 250 – 300 o'rin;
3. 200 – 250 o'rin;
4. 150 – 200 o'rin;
5. 100 – 150 o'rin;
6. 75 – 100 o'rin;
7. 50 – 75 o'rin.

Shahar/tuman bolalar kasalxonasining Bosh shifokori bo'yicha holat

Kasalxona Bosh shifokori lavozimiga davolash va tashkillashtirish ishlarida tajribasi bo'lgan malakali shifokor tayinlanadi, kasbi bo'yicha ish staji 5 yildan kam bo'lmaydigan. Amalga oshgan qonun qoidalarga nisbatan sog'liqni saqlash

boshqarmasi organi tomonidan belgilangan nomenklaturasi tartibida ishga tayinalanadi va ozod qilinadi. Kasalxona faoliyatini boshqaruvini yakkaboshchilik asosida bajaradi, butun davolash-profilaktika, kasalxona ma'muriy –ho'jalik va moliya faoliyatlariga javob beradi.

Bevosita sog'liqni saqlash yuqori organiga bo'ysinadi.

O'z faoliyatida amalga oshgan qonun qoidalaridan, sog'liqni saqlash boshqarmasini idora qiladigan ho'jjatlari, buyruqlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining boshqaruv ho'jjatlaridan, kasalxona holatidan, va shunday shu kungi instruktsiyalardan tayanadi.

Davlat va davlatga qaramagan, sud boshqaramalarida va boshqa boshqarmalarda kasalxonani kasb qiladi.

Bosh shifokor buyruqlari va ko'rsatmalari kasalxonaning hamma xodimlari uchun majburiy bo'ladi.

3.2. Shahar bolalar kasalxonasi Bosh shifokorining funktsional majburiyatlari

Kasalxonaning perspektiv va shu kungi rejalarini ishlab chiqaradi, sog'liqni saqlash yuqori organlariga tasdiqlash uchun taqdim qiladi va ularni bajarilishini ta'minlaydi.

Har yili analiz qiladi va hisobot tuzadi:

- O'tayotgan yilga moliya-ho'jalik faoliyatini va kasalxona material- texnik bazasini rivojlanishi;

- kadrlar bilan ishlaydi, ularni qo'nimsizligini sabablarini aniqlaydi va ularni bartaraf qilish chora tadbirlarini rejalaydi.

3. Umumiy va infeksiyon kasalliklarni kamaytirish va profilaktikasiga yo'nalgan kasalliklarni letallik natijalarini va bolalar o'limini kamaytirish chora tadbirlarni ishlab chiqaradi va tashqil qiladi.

4. Bolalarni tekshiruvda va davolashida kerakli bo'lgan sifat bilan ta'minlaydi.

5. Statsionarda va QVPlar orasida va boshqa davolash – profilaktor muassasalar bilan kasal bolalarning davolash va xizmat ko'rsatishda qabul bilan aloqa ta'minlaydi.

6. Kasalxonaga bemor bolalarni parvarish qilish uchun kelgan bemor onalarni, sog'lomlashtirish va diagnostika hamma kompleksi bilan ta'minlaydi.

